

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

CHET TILLARI FAKULTETI

**NEMIS TILI TA'LIM YO'NALISHI 401-GURUH TALABASI
BEKCHANOVA NARGIZANING**

**5220100-FILOLOGIYA NEMIS TILI TA'LIM YO'NALISHI
BO`YICHA
BAKALAVR DARAJASINI OLISH UCHUN**

BITIRUV
MALAKAVIY ISHI

Mavzu: "O'zbek so'zlashuv tilida uchrovchi nemischa so'z va iboralar "

Ilmiy rahbar:

prof. Jumaniyazov A. J.

Urganch 2014 yil

KIRISH

I. BOB. TILLARNING RIVOJLANISHI VA BUNDA O'ZARO SO'Z
O'ZLASHTIRISHNING MUHIM OMIL EKANLIGI HAQIDA

- 1.1. *O'zbek tilining dunyo tillari orasida tutgan o'rni*
- 1.2. *Nemis tili – rivojlangan tillarning biri sifatida*
- 1.3. *Nemis va o'zbek tillarining o'zaro yondashish hususiyatlari va munosabatlari haqida*

II. BOB. O'ZBEK SO'ZLASHUV TILIDAGI NEMISCHA SO'ZLAR
TAHLILI

- 2.1. *O'zbek tilidagi nemischa so'zlarning fonetik tahlili*
- 2.2. *O'zbek tilidagi nemischa so'zlarning grammatik tahlili*
- 2.3. *O'zbek tilidagi nemischa so'zlarning so'zlashuv tilida uchrashi va ma'nolari*

KIRISH

Tarix shundan dalolat beradiki, vatanimizning har bir taraqqiyot bosqichlarida turli xil millat vakillaridan o'zlashgan so'zlar, sekin-asta o'zbek tiliga singishib, uning fonetik, grammatik va semantik qonuniyatlariga moslashib, o'zbek tili lug'at boyligining oshishiga sabab bo'lib kelgan. Tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning turli tillarda turlicha nomlanishidan qat'iy nazar, mana shu jarayonda u insonlar faoliyatida fikrlash va o'zaro ijtimoiy munosabat - muomala vositasi, materiali bo'lib qolaveradi. Ammo til muomala vositasiga aylandimi, uning tabiiy ravishda imkoniyat doirasi ham kengayib boradi. Endi u nutq, nutqiy jarayon quroliga aylanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Har qanday milliy tilning lug'at tarkibi, uning jami so'z boyligi mazkur millatning butun tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir. U doimo harakatda va o'sishda bo'ladi. Tilning rivojlanish samarasi esa, asosan ikki omilga, uning ichki va tashqi o'sish manbalaridan qanday foydalana bilishga bog'liq bo'ladi.

Mazkur ishda asosan tashqi manbalar ta'sirida yuz bergan o'zbek tilidagi miqdor va sifat o'zgarishlarni o'rganishga harakat qilindi. Unda nemis tildan o'zbek tiliga kirib kelgan o'zlashmalarni differensial (til va birliklarning shakl, mazmun va boshqa jihatdan o'zaro ajratilishi, qatlamlanishi, so'zlarning fonetik, grammatik va ma'no jihatdan o'zaro alohidalanishi) tahlil qilish ko'zda tutildi. Zero, o'zbek tilining lug'at tarkibi undagi so'zlarning etimologiyasi, imlo, talaffuz va anglatadigan ma'nolari bilan qiziqqan har bir kishi, o'zbek tili va so'zlashuv nutqida nemis tilga oid bo'lgan bir qatlam til birliklarini payqashi qiyin emas. Hozirgi o'zbek tilshunosligida o'zlashmalarni o'rganish dolzarb va ahamiyatga molik masalalardan biri hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zlashmalar ustidan juda ko'p tadqiqot ishlari olib borilgan. Chunki bular bugungi kunning eng dolzarb mavzularidan sanaladi. O'zbek so'zlashuv tilida uchrovchi nemischa so'z va iboralar mavzusida shu kunga qadar hali to'liq va aniq ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar

olib borilmagan. O'zlashmalar mavzusi to'liq o'rganilmagan. Bu o'z navbatida ilmiy tekshirish ishlari, alohida ma'ruzalar, terminologiya bo'yicha qator qo'llanmalar, lug'atlar yaratishni talab qiladi.

Bitiruv malakaviy ishning manbalari. O'zbek tilining izohli lug'ati (80 ming so'zli yangi nashr), "O'zbekiston Milliy ensklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Jumaniozov A.J. "Leksikologiya" fanidan o'quv uslubiy majmua (Urganch, 2008), Jumaniozov A. "O'zbek tilidagi german tillari o'zlashmalari" (Toshkent, 1987)

"www.google.uz", "www.wikipedia.org" internet saytlari va o'zlashmalarga oid maqolalar tadqiqot ishining manbai bo'lib xizmat qildi.

Mazkur bitiruv-malakaviy ishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Nazariy fikrlarni tahlil qilish va umumlashtirish;
- O'zlashmalarni tahlil qilish;
- Misollar yordamida nazariy fikrlarni isbotlash.

Ishning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishda asosiy e'tiborni o'zbek tilining tashqi manbalar asosida ro'y bergan o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlarini tarixiy-tadrijiy (diaxronik) kuzatish va shu tashqi ta'sirlar ostida yuz bergan hodisalarning ayrim bir davrlar, o'zbek tilining muayyan bir tarixiy bosqichlariga bog'lab o'rganish ko'zda tutildi.

Ishning asosiy maqsadi o'zbek tiliga nemis tildan kirib kelgan so'zlarni son va sifat jihatidan tahlil qilishdir. Ushbu ishni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

- 1) o'zbek tiliga o'zlashgan va o'zbek adabiy tili hamda so'zlashuv nutqida qo'llanilib kelayotgan nemis tilga oid so'zlarni yig'ish, hajmini (taxminiy) aniqlash;
- 2) ularni tematik guruhlariga ajratish;
- 3) ulardagi o'zlashish jarayonida ro'y bergan fonetik, grammatik, va semantik o'zgarishlarni differensial tahlil qilish;

4) yig'ilgan misollar asosida o'zlashmalarning o'zbek va nemis tillaridagi hozirgi kundagi ma'nolarini ilova tarzida keltirish.

Ishdagi ilmiy yangiliklar. Ushbu bitiruv malakaviy ishida o'zbek tiliga o'zlashgan nemischa o'zlashmalar ajratib olinib, ular fonetik, grammatik, leksik, semantik jihatdan tahlil qilindi va tematik guruhlarga ajratilib, foizlari aniqlandi. Bu o'zbek so'zlashuv tilidagi nemis tilidan o'zlashmalar bo'yicha qilingan dastlabki ilmiy izlanishdir.

Ishning amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishi o'zbek tilida nemis tilidan o'zlashmalar bo'yicha dastlabki tadqiqot bo'lganligi sababli, terminologiya sohasida ish olib borayotganlar uchun muhim manba bo'lishi mumkin. Nemis tilidan o'zlashgan so'zlarning alifbo tartibida berilganligi, tematik guruhlarga ajratilganligi va yasalishi haqidagi ma'lumotlar ular uchun qator qulayliklar yaratadi.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

Ilm-fan, texnika taraqqiyoti, ijtimoiy hayotning ko'pchilik sohalaridagi yangiliklar mislsiz darajada yangi so'z va terminlar yaratdiki, bular dunyoning qaysi tilida va qaysi xalq tomonidan yaratilgan bo'lishiga qaramay, o'zbek tili lug'at tarkibining boyishiga, uning rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir qilib kelyapti. Kirib kelgan yangi so'z va terminlar o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlariga suyangan holda qabul qilindi. Bu leksik birliklardan o'zbek xalqi o'zining og'zaki nutqida faol foydalanib kelmoqda.

Biz mazkur ishda o'zbek tilida nemis tilidan o'zlashmalar bo'yicha jami 265 ta o'zlashma so'zni yig'ib, ularni tadqiq etish orqali nemischa o'zlashmalarning hozirgi kundagi holati, grammatik xususiyatlarini atroflicha o'rganib chiqdik.

I. BOB. TILLARNING RIVOJLANISHI VA BUNDA O'ZARO SO'Z O'ZLASHTIRISHNING MUHIM OMIL EKANLIGI HAQIDA

Tarixdan shu narsa ma'lumki, har bir davr, ijtimoiy tuzum insoniyat oldiga u yashab turgan hayotni real idrok qilish, mavjud ijtimoiy-siyosiy, moddiy-ma'naviy salohiyatdan yangicha, o'z istiqboli manfaatlaridan kelib chiqib foydalanish, turlicha mazmundagi an'analarni zamon talablariga moslab isloh qilish masalalarini ko'ndalang qilib qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi XX asrning oxirgi o'n yilligi boshida qo'lga kiritgan mustaqillik xalqimizning har tomonlama rivojlangan, kamol topgan, o'z tarixiy va milliy an'alarimizni yangicha bir tarzda rivojlantirishga imkon beradigan, o'zbek millatini dunyodagi ma'naviyati eng yuksak xalq darajasiga ko'tarishga sharoit yaratadigan kelajagimizni barpo qilishga zamin yaratdi.

Islohot deb ataladigan ko'p qirrali va o'ta murakkab jarayon ijtimoiy-siyosiy hayotimizning, shubhasiz, barcha jabhalarini qamrab oladi. Jumladan, barkamol avlod tarbiyasini milliy istiqlol g'oyasiga yo'g'rilgan aniq maqsadlarga yo'naltirish, yaxlit bir butunlikni tashkil qiladigan uzluksiz ta'lim jarayonini ana shu vazifalarga bo'ysundirish ham yuqorida tilga olingan islohotlar doirasida qaraladi.

Tilning paydo bo'lishi. Til odamlarning bir-birlari bilan muomalada bo'lishi uchun yordam beradigan eng muhim vositadir. Odamlar til vositasida o'z fikrlarini his-tuyg'ularini ifodalaydilar. Insoniyat jamiyatining shakllanishida tilning roli beqiyosdir. Insonning o'zi, uning ongi mehnat jarayonida paydo bo'lgani kabi, til ham insonlarning mehnat qilishi jarayonida paydo bo'lgan. Insoniyat taraqqiyotining ma'lum bir davrida aniqrog'i, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida odamlar mehnat qilishlari jarayonida bir-birlariga o'z fikrlarini his-tuyg'ularini bayon qilish istagi tug'ilgan va bu dastlabki oddiy tilning paydo bo'lishiga turtki bo'lgan.

Til va jamiyat bir-biriga ta'sir qilib turadigan, birining rivojiga boshqasi hissa qo'shadigan hodisalar bo'lganligi uchun jamiyatda yuz bergan o'zgarishlar tezlik

bilan tilda ham aks etishi tabiiydir. Bu o'zgarishlar hammadan ko'proq tilning lug'at boyligida, ya'ni so'zlarida o'z ifodasini topadi. Tildagi nutq tovushlari, tilning grammatik qurilishi, ya'ni gap bo'laklarining joylashuvi so'z turkumlari tizimi uzoq vaqtgacha o'zgarmasligi mumkin. Ammo tildagi so'zlar tez-tez o'zgarib turadi.

Dunyo tillari. 1999-yilda yer yuzi aholisi 6 mlrdga yetdi. Mana shu aholi 2976 xil tilda gaplashadi. Ayrim darslik va qo'llanmalarda tillarning miqdori 3000 dan ortiq deb ko'rsatiladi. Shundan 200 tilning har birida 1 mln. dan ortiq, 70 tilning har birida 5 mln. dan ziyod, faqat 13 tilning har birida 50 mln. dan ortiq kishi so'zlaydi. Qolganlarining har birida esa 1 mln. dan oz kishi gaplashadi.

Kavkaz tog'larida joylashgan Dog'istonda 1 mln. dan ortiq aholi bo'lib, ular 40 ga yaqin tilda so'zlashadi.

Dunyodagi tillar kelib chiqishi, lug'aviy va grammatik jihatdan yaqinligiga qarab bir necha til oilalariga bo'linadi. Yer yuzida 20 ga yaqin til oilasi bor. Til oilalari o'z navbatida til turkumlariga bo'linadi.

Hind-yevropa oilasi quyidagi til turkumlarini o'z ichiga oladi:

- a) Hind turkumi (hind, urdu, bengal, panjob, gujarat va h.k.)
- b) Eron turkumi (fors, afg'on, osetin, kurd, tojik va h.k.)
- c) Slavyan turkumi (rus, ukrain, belarus, chex, slovak, polyak, serb, makedon, bolgar, xorvat, sloven)
- d) Boltiq turkumi (litva, latish, latgal)
- e) German turkumi (dat, shved, norveg, island, ingliz, golland, nemis, yangi yahudiy)
- f) Roman turkumi (fransuz, italyan, ispan, portugal, rumin, moldovan tillari)
- g) Kel't turkumi (irland, shotland, breton, uels)
- h) Anatoliy turkumi (o'lik)
- i) To'xar turkumi (o'lik)

Grek, alban, arman tillari birorta turkumga mansub bo'lmasdan, shu til oilasiga kiradi.

Oltoy tillar oilasiga quyidagi turkumlar kiradi:

- a) Turkiy turkumi (o'zbek, qozoq, qirg'iz, turk, turkman va boshqa jami 24 til)

- b) Mo'g'ul turkumi
- c) Manchjur turkumi
- d) Yapon turkumi
- e) Koreys turkumi

Fin-ugor tillar oilasiga fin guruhi (fin,eston,karel,komi-ziryan,udmurd,mari,mordva tillari) , ugor guruhi (venger,mansiy, xantiy tillari) mansubdir.

Som-xom tillar oilasiga semit guruhi (arab,axmar,xarari,oysor,ivrit tillari), kushit guruhi (galla, somali, saxo,beja tillari), berber guruhi (kobil,sholx,rif,tamazis tillari), chatxon guruhi (xuase, kotoko, ahgas, karekare,sura,chuzgu,mubi tillari), arab guruhi (qadimgi arab tili) kiradi.

Kavkaz oilasiga g'arbiy guruh (abxaz,abazin,adigey,kabardin,ibix tillari), nax guruhi (chechen,ingush,batsbi tillari), dog'iston guruhi (avar,darg'in,lezgin,lak,karatin,tunzip tillari), janubiy guruh (megrel,chan,gruzin,kartali,svan,guri tillari) kiradi.

Xitoy-tibet oilasiga tay-xitoy guruhi (xitoy,dungan,tay,laos,chjoan,vetnam tillari), tibet-birma guruhi (tibet,birma tillari) kiradi.

Bulardan tashqari yana dravit,malay-polinez,avstraliya,papua,afrika til oilalari ham bor.

1.1. O'zbek tilining dunyo tillari orasida tutgan o'rni

O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida» gi qonunining 1-bandida: «O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir» deb yozilgan. O'zbek milliy tili qadimgi turkiy tilning bir tarmog'i, tarkibiy qismidir. Uning tarkibida uch: qarluq, qipchoq, o'g'uz lahjalari bor. Hozirgi o'zbek adabiy tili milliy tilning sayqallashtirilgan, ishlangan, muayyan qolipga solingan shakli. Dunyo tillarining genealogik tasnifi bo'yicha turkiy tillarning qaysi tillar oilasiga mansubligi haqida uch xil ilmiy qarash bor (4; 7-9):

1. Bir guruh olimlar (V.Shott, V.Tomsen va boshqalar) turkiy tillarni Ural-oltoy tillari oilasiga mansub deb hisoblaydilar. Shuningdek, bu oilaga tungus-manjur, yapon, koreys, fin-ugor tillarini ham qo'shadilar.

2. Bir guruh olimlar (R.Ramsted, Ye.D.Polivanov va boshqalar) turkiy tillarni Oltoy tillari oilasiga mansub deb hisoblaydilar. Fin-ugor tillarini esa ajratadilar.

3. Boshqa guruh olimlar (V.V. Radlov, F.E. Korsh, N.A. Baskakov va boshqalar) esa mazkur tillarni Turkiy tillar oilasi deb ajratadilar.

Dunyo tillarining morfologik tasnifi bo'yicha turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili agglyutinatив tillarga kiradi (4; 7). Ya'ni qo'shimchalar bevosita o'zak va negizga qo'shiladi, leksik hamda grammatik ma'nolar ifodalaydi. Bunday tillarda prefikslar yo'q. Predloglar o'rnida, asosan, ko'makchilar qo'llanadi. Jins kategoriyasi mavjud emas.

Mazkur tillarda affikslar birin-ketin ulanib keladi. Ular o'zak bilan ham, boshqa affikslar bilan ham qorishib ketmaydi, ularning chegarasi aniqdir. Unli tovushlar asosning tovush tarkibiga bog'liq holda fonetik o'zgarishga uchrashi mumkin. Bu hodisa singarmonizm (uyg'unlashuv) deb nomlanadi. Bundan tashqari undosh tovushlar ham morfemalar qo'shilganda o'zgarishga uchraydi, ammo bu o'zgarish muayyan til uchun xos bo'lgan fonetik qoidaga bo'ysungan holda yuz beradi. Ushbu tillarda omonimlik, ko'p ma'nolilik muhim ahamiyatga ega. So'z tartibiga ko'ra avval ega, gapning oxirida kesim joylashadi. Ko'pincha avval payt holi, aniqlovchi, ega, so'ngra esa aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, kesim joylashish holati uchraydi.

O'zbek tili va uning taraqqiyot bosqichlari

O'zbek tili oltoy tillar oilasining turkiy tillar turkumiga kiradi. Dunyoda 24 xil turkiy til bor: o'zbek, turkman, boshqird, ozarbayjon, qozoq, qirg'iz, turk, uyg'ur, qoraqalpoq, tatar, chivash, yoqut, qorachoy, balqar, tuva, oltoy turklari, xakas, gagauz, shor, qoraim, no'g'oy, oyrot, karagas.

O'zbek adabiy tili tarixi quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi:

1. Qadimgi turkiy adabiy til (X – XII asrlar). O'rxun-Enasoy yodgorliklari (VI – VII asrlar), Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit – turk ” (“Turk tillari

devoni”), Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” (“Saodatga yo’lllovchi bilim” asarlari shu tilda yaratilgan.

2. Eski o’zbek adabiy tili (XIII – XIX asrning ikkinchi yarmigacha). Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Rabg’uziyning “Qissasi Rabg’uziy”, Atoiy, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqa ko’pab ijodkorlarning asarlari shu tilda yaratilgan.

3. Hozirgi o’zbek adabiy tili (XIX asrning ikkinchi yarmidan hozirgi davrgacha). “Turkiston viloyati gazetisi” nashr qilina boshlangan vaqtdan (1870 yil) e’tiboran to hozirgi kungacha yaratilgan barcha asarlar hozirgi o’zbek tilining namunalari hisoblanadi.

O’zbek tili XI asrdan boshlab mustaqil til sifatida shakllana boshladi va XIII asrda eski o’zbek adabiy tili shakllanib bo’ldi.

1989 yil 21 oktyabrda o’zbek tili O’zbekiston Respublikasining davlat tili ekanligi haqida qonun qabul qilindi. Shundan keyin tilimizning yangi taraqqiyot bosqichi boshlandi.

O’zbek tilshunosligining rivojlanish tarixi O’zbek (qadimgi turkiy) tilini o’rganish Mahmud Koshg’ariydan boshlandi. Bu alloma eng birinchi turkiy tilshunosi, adabiyotshunosi, elshunosi sifatida nom chiqargan olimdir. U o’zining “Devonu lug’otit – turk ” asarida turkiy tilda mavjud bo’lgan so’zlarni ma’lum turkumlarga (ot, fe’l, yordamchi so’zlarga) ajratgan. Alisher Navoiy ham tilimizni ilmiy jihatdan o’rgangan.

O’zbek tili fan sifatida maktablarda XX asrning boshlarida o’qitila boshlandi. Ana shu davrdan boshlab tilimizni tizimli (sistemali) tarzda o’rganish boshlangan.

O’zbek tilshunosligi fanining poydevoriga dastlabki g’ishtlarni qo’yishda Muhammadamin Muhammadkarimov (1894-1941), Munavvarqori Abdurashidxonov (1873-1931), E.D.Polivanov (1891-1938), Qayum Ramazonov (1897-1942), A.K.Borovkov (1904-1962), F.Kamolov (1907-1966), X.Komilova (1912-1961), Ayyub G’ulomov (1914-1982) va boshqa olimlarning xizmatlari katta bo’ldi. Hozirgi davrda tilimizni tadqiq qilishda faol ishtirok etayotgan

M.Asqarova, Sh.Shoabdurahmonov, A.Hojiyev, A.Rustamov, N.Mahmudov, A.Nurmonov va boshqa o'nlab yirik olimlarni hurmat bilan tilga olishimiz mumkin.

1934 yili Toshkentda Til va adabiyot instituti ochildi. Bu institutda olimlar o'zbek tilini har tomonlama tadqiq qilishmoqda.

Necha asrlar davomida sayqal topib, silliqlashib, mukammalashib, bugungi holatga kelgan o'zbek adabiy tili xalqimizning umumxalq tili negizida shakllangan va taraqqiy topgan. Turkiy tillar tizimi va oltoy tillar oilasiga kiruvchi o'zbek tili hozirgi holatga kelgunga qadar uzoq taraxiy taraqqiyot davrini boshidan kechirganligi ma'lum.

Barcha tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilining boyib borishida ham ichki va tashqi omillarning ta'siri katta. «O'zbek tilining bevosita o'ziniki bo'lgan asosiy leksik qismini shu tilning taraqqiyoti prosessida uning ichki imkoniyatlari, o'ziga xos qonun-qoidalar asosida hosil etilgan yasama so'zlar tashkil etadi» (39; 121).

Binobarin, yangi so'zlar yasaliishining yoki mavjud so'zlarning yangi-yangi ma'nolar anglatishining o'zbek tilida imkoniyatlari kengdir.

Shu bilan birga, tilimizdagi leksik birliklar juda oz bo'lsa-da, grammatik vositalar orasida tashqaridan olingan, jumladan, hindcha, yunoncha, arabcha, mo'g'ulcha, forsha-tojikcha, ruscha-baynalmilal birliklar uchraydi. Bu xalqimizning o'tgan juda ko'p asrlik davr mobaynida boshqa xalqlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqadorlikda bo'lganligi, buning ustiga, ayrim davlatlar va ularning boshliqlarining O'rta Osiyo hududida olib borgan bosqinchilik urushlari va harakatlari bilan bog'liq. Qanday bo'lganda ham tilimizga chet so'zlar kirib kelganligini inkor qilib bo'lmaydi va uning, yuqorida ta'kidlaganimizdek, obyektiv va subyektiv sabablari mavjud. Bu birliklar bugungi kunda tilimiz lug'aviy boyligining tarkibiy qismi sanaladi.

Til me'yorining adabiy tilga munosabati haqida mulohaza yuritishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, dastlab tilimizning ana shu boyib borish yo'llariga, taraqqiyot davrlariga, qisqacha bo'lsa-da, ko'z yugurtirish lozim bo'ladi.

Tilimiz taraqqiyot bosqichlarini davrlashtirish hamda uning mukammal tasnifi

bilan shug'ullanish XIX asrdan boshlangan.

Turkiy tillarni davrlashtirish bo'yicha V.V. Radlov, A.N.Samoylovich, S.Ye.Malov, Ye.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.R.Reshetov, N.A. Baskakov, V.A. Bagorodiskiy kabi rus turkiyshunos olimlarining xizmatlari katta bo'lgan. Keyinchalik, ularning ilmiy qarashlariga tayanilgan holda o'zbek tili tarixini davrlashtirish masalasi ham kun tartibiga qo'yilgan. Bu borada Tesha Salimov, Faxri Kamolov, A.M.Shcherbak, Olim Usmonov, G'ani Abdurahmonov, Shamsiddin Shukurov, Ergash Fozilov, Fattoh Abdullayevlar o'z qarashlarini bayon qilishgan

Bu qarashlar bir qadar batafsil tahlil qilingan va umumlashtirilgan ilmiy manbalar o'zbek adabiy tili tarixini o'rganishning eng keyingi yutuqlarini mujassam qilgan, darslik va qo'llanma sifatida tavsiya etilgan U.Tursunov, B.O'rinboyev, A.Aliyev hamda A.Muxtorov, U.Sanaqulovlarning asarlari hisoblanadi.

Bu kitoblardagi har ikkala tasnifni ham keltirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

U.Tursunov, B.O'rinboyev, A.Aliyevlar tasnifi:

1. Qadimgi turkiy xalqlar davrida adabiy til (V-X asrlar).
2. Ilk davr o'zbek xalq tili (X-XIV asrning yarmi).
3. O'zbek xalq tilining takomillashish davri (XIV asr oxiri XIX asrning II yarmi).
4. Milliy til unsurlarining paydo bo'lish, shakllanish va rivojlanish davridagi o'zbek adabiy tili (XIX asrning II yarmidan hozirgi kungacha bo'lgan davr).

Muxtorov va U. Sanaqulovlar tasnifi:

1. Qadimgi turkiy adabiy til davri (VII - XIII asrlar).
2. Eski o'zbek adabiy tili davri (XIII - XX asr boshlarigacha).
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili davri (XX asr boshlari keyingi davr).

Bu tasniflarning qaysi biri nisbatan mukammal va ilmiyligini tahlil qilish bizning vazifamizga kirmaydi. Ammo adabiy til me'yori masalasini bir qadar kengroq o'rganishimiz uchun tasniflardan xabardor bo'lishimiz zarur. Bu o'rinda xulosa sifatida faqat shuni ta'kidlash lozim bo'ladiki, ona tilimiz tarixi qanday tartibda davrlashtirilganidan qat'iy nazar uning rivojidagi hamma bosqichlarda ham til

birliklarini bir me'yorga keltirish masalasi xoh ongli, xoh stixiyali tarzda bo'lsin, muomala jarayonida e'tiborda bo'lgan. Ammo shu narsa hayotiy, ilmiy haqiqatga yaqinki, adabiy me'yorning shakllanishidagi dastlabki bosqich stixiyali ravishda yuz bergan.

Ma'lum til birligining jamoa o'rtasidagi ma'lum shakl va holatda ko'p iste'molda bo'lishi me'yoriy ko'rinishlarning turg'unlik kasb etishiga asos bo'ldi. Tilda yuz, balki ming yillab davom etgan differensiasiya - ajralish, tarqalish jarayoni bu me'yorning ma'lum bir til doirasida bir yo'nalishda umumtil-adabiy, ikkinchi bir yo'nalishida esa umumxalq tilining tarkibiy qismi bo'lgan dialekt va shevalar ham mahalliychilik shaklida mustahkamlanib borishiga olib keldi.

Tabiiyki, jamiyat taraqqiyoti bilan bab-baravar til, jumladan o'zbek tili ham rivojlanib, mukammallashib, ilmiy jihatdan o'rganilib borildi. Natijada uning barcha tarmoqlarida me'yoriy tomonlar anchagina barqarorlashdi. Bu yerda ham til me'yorlarining mustahkamlanishida nutq jarayonining katta ahamiyat kasb etganini esdan chiqarmagan holda, uning taraqqiyoti tobora ongli boshqarila borganligini, tilshunoslik ilmining ta'siri sezilarli darajada kengayganligini kuzatish qiyin emas.

Ana shu omillar ta'siri va natijasi o'laroq til qatlamlaridagi mavjud birliklarga belgilab qo'yilgan me'yoriy holatlar tildan foydalanuvchi barcha vakillar uchun majburiy ko'rinishga keltirildi va bu majburiylik tegishli hujjatlarda, lug'atlarda o'z ifodasini topdi. Shuning uchun ham mustaqillik va faqat mustaqillik sharofati bilan yaqin paytlarda og'izda «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik» deb atalgan, aslida o'shanda ham ko'pchiligimizga ko'zda tutilgan maqsadi ayon bo'lgan mafkuradan butunlay qutulib, o'z milliy mafkuramizni, istiqlol g'oyamizni shakllantira borayotgan paytimizda ona tilimizga bo'lgan munosabatimizni ham milliy manfaatlarimizga mos keladigan yangicha qarash asosiga qurmog'imiz shartdir. Zero, til tarbiyasi ham millat tarbiyasining tarkibiy qismi sanaladi. Shu o'rinda buyuk Abdulla Avloniyning asrimiz boshlarida aytgan quyidagi so'zlari beixtiyor esga keladi: «Alhosi, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir». Darhaqiqat, Avloniyning «o'qish,

o'qitish, tarbiya ishlarida davr talabi asosida islohotni amalga oshirish nihoyatda zarur» degan fikri o'z zamoni uchun ham, bugungi kun uchun ham qimmatlidir.

Fonetika. Fonetika fanining predmeti tilning tovush tomoni, fonetik qurilishidir. Tilning tovush tomoni nutq tovushlari bo'g'in, urg'u, ohang (intonatsiya, melodika) kabi birliklarni o'z ichiga oladi. O'zbek tilining tovushlar tizimi va ularning yozuvdagi harfiy ifodasi masalasida talabalarga «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanining «Fonetika» bo'limida tegishli ma'lumotlar berib o'tilgan. Ana shu kursni o'qitishga oid darsliklarda o'zbek tilda 6 unli, 25 undosh tovush - fonema mavjudligi qayd etiladi. Unlilarning harfiy ifodasi 6 ta: i, e (ye), a, o, u, o'.

Undosh fonemalar esa 25 ta. Ularni ifoda etish uchun 23 harf va harflar birikmasi qo'llaniladi: b, v, g, d, z, j, dj, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, s, ch, sh, q, g', h, ng.

Binobarin o'zbek tilining imloviy me'yorlari hozirgacha ana shu qoidalarga muvofiq amal qilmoqda va bu jarayon O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonunining yangi tahririni amalga kiritish tartibi to'g'risida»gi 1995 yil 21 dekabr qaroriga asosan 2005 yilgacha davom etadi.

Undan keyin esa to'lig'icha O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini hayotga joriy qilish to'g'risida»gi hamda 1995 yil 6 maydagi «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonunlariga asosan ish ko'riladi. Hozirda ham bu qonunlar amalda. Respublikamizda ta'limning barcha tizimlarida ushbu qonunlarni bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 24 avgustda «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida» qabul qilgan qarori asosida o'qitilmoqda.

Yangi o'zbek alifbosiga 26 ta harf, 3 ta harflar birikmasi va tutuq belgisi kiritildi hamda bu bilan alifbo tizimi anchagina soddalashtirildi. Bu soddalashtirish ikki tovushni ifoda etuvchi ye, yo, yu, ya singari grafemalarni, ona tilimizga xos bo'lmagan tovush ifodasi - s harfini va - yumshatish belgisini olib tashlash hamda ayirish belgisini tutuq belgisiga almashtirish, shuningdek, ch, sh, ng tovushlarini ifodalovchi harflar birikmasini kiritish evaziga amalga oshirildi.

Shu bilan ancha paytlardan beri alifbomizda, ayniqsa, unlilar tizimida mavjud bo'lgan kamchiliklar borasida bo'lib kelayotgan bahsu munozaralar ma'lum ma'noda yakunlandi.

O'zbek xalqi uchun jahon miqyosiga chiqishdek olamshumul vazifani amalga oshirishga katta hissa bo'lib qo'shiladigan bu tadbirning istiqbolimizga xizmat qilishi shubhasizdir. An'anaviy imlo me'yorlarini saqlab qolgan holda lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosi bilan ish ko'radigan imlo ham o'z me'yoriy qoidalariga ega va bu me'yorlar yuqorida tilga olingan hujjatda o'z ifodasini topgan. Undagi qoidalarga amal qilish tilimizdan foydalanuvchilar uchun bundan keyin majburiy sanaladi va shu tarzda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan tadbirlar natijasida o'zbek tilining orfografik me'yori yo'lga qo'yiladi.

Anglashimizcha, hozir qulay bir vaziyat vujudga keldi. Bir alifbodan ikkinchisiga o'tish davridan to'g'ri foydalanib, orfografik va orfoepik me'yorlarni bir-biriga yaqinlashtirish ustida samarali ish olib borishimiz lozim. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi va maorifimiz jonkuyarlarining sa'yi harakatlari bilan ta'lim sohasida yirik islohotlar amalga oshirilayapti. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga talabalarni test sinovlari asosida qabul qilish ana shunday ulkan qadamlardan biri bo'ldi.

O'zbek tili grammatikasi tilshunoslik sohalari orasida nazariy jihatdan bir muncha yaxshi ishlanganligi, so'z shakllari, qo'shimchalar, so'z birikmalari va gap qurilishi bir qadar mukammal me'yoriy tavsiyalarga ega bo'lganligi bilan ajralib turadi. Bu haqda ilmiy adabiyotlarda, darsliklarda, o'quv qo'llanmalarida tegishli mulohazalar aytilgan.

O'zbek tili leksikasining boyish manbalari. O'zbek tili leksikasi bir qancha manbalar asosida boyib, rivojlanib boradi. Ularni, eng avvalo, ikki katta guruhga ajratish mumkin: 1) o'z ichki imkoniyatlari asosida; 2) boshqa tillardan so'z olish asosida. Ularning birinchisi ichki manbalar, ikkinchisi esa tashqi manbalar hisoblanadi.

1. O'zbek tili leksikasining birinchi yo'l bilan boyib borish imkoniyatlari juda kengdir. Masalan, a) ilgari qo'llanilib, keyin iste'moldan chiqib ketgan so'zlardan yangi so'zlardan yangi tushunchalarni ifodalash uchun foydalanish: vazir, hokim, viloyat, shirkat, noib, tuman kabi; b) yasovchi qo'shimchalar yordamida yangi so'z yasash: uyali telefon, omonatchi, pudratchi, bojxona va boshqalar; d) dialektal so'zlarni faollashtirish (shevalardan adabiy tilga so'z olish): mengzamoq (Xorazm) – o'xshatmoq, tenglashtirmoq, qiyoslamoq ma'nosida.
2. O'zbek tili leksikasi tashqi manbalar asosida ham boyib bormoqda. Dunyoda boshqa tillardan so'z olmasdan faqat o'z ichki imkoniyatlari asosidagina rivojlanadigan birorta til yo'q. Bundan o'zbek tili ham mustasno emas. Faqat ma'lum zarurat tufayli yangi tushunchani ifodalovchi o'z tilimizning ichki imkoniyatlari asosida ifodalab bo'lmagandagina tashqi manbalarga murojaat qilish foydalidir. Bobolarimiz Alisher Navoiy, Mahmud Koshg'ariy ham shunga da'vt qilgan.

Keyingi davrlarda tilimizga Yevropa tillaridan bir qancha so'zlar yangi tushunchalar bilan birgalikda kirib keldi. Masalan, modem, klaviatura, skaner va boshqalar. Bularning hammasi o'zbek tili leksik imkoniyatlarini kengaytirib, boyitmoqda.

1.2. Nemis tili – rivojlangan tillarning biri sifatida

Olmon tili — hind-yevropa tillari oilasidagi german tillari guruhiga mansub til. Nemis tili Germaniya Federativ Respublikasi, Avstriya Respublikasi, Shvetsariya Konfederatsiyasi (qisman), Lyuksemburg Gersogligi (qisman), Belgiya Qirolligining rasmiy tili hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasida, Shimoliy va Janubiy Amerikaning bir qancha mamlakatlarida ham tarqalgan. So'zlashuvchilarning umumiy soni 110 mln. kishidan ortiqroqdir. Nemis tili frank, saks, turing , alemann, bavar singari g'arbiy german qabilalari shevalari asosida tarkib topgan va quyi nemis, o'rta nemis va janubiy nemis lahjalariga, har bir lahja guruhi esa

gʻarbiy va sharqiy guruhchalarga ajraladi. Nemis tilining taraqqiyot tarixida milliy tilgacha boʻlgan (16-asrgacha) va milliy til (18-asrdan) davrlari farqlanadi; 16-17-asrlar oʻtish davri hisoblanadi. Hozirgi adabiy til meʼyorlarining shakllanishi asosan 18-asr oxirida tugallanib, bu davrda grammatik tizim va imlo barqarorlashgan.


Hozirgi Nemis tili fonologik tizimida monoftong va diftonglar 45 foizni tashkil etadi (16 unli fonema va 3 diftong); undoshlar tizimi 18 undosh fonema va 2 qorishiq tovushdan iborat. Barcha fonemalar hosil boʻlish oʻrni, usuli va talaffuzi jihatidan oʻzaro farqlanadi, muayyan oʻziga xosliklarga ega. Grammatik qurilishi analitiksintetik xususiyat bilan ajralib turadi. Masalan, otlarda jins va kelishik shakllari, asosan, analitik tarzda, son kategoriyasi esa sintetik tarzda ifodalanadi. Bu holat boshqa soʻz turkumlaridagi shakllar ifodasida ham kuzatiladi. Gapning asosiy turi feʼl markazli gap. Yasama, qoʻshma feʼllardan ifodalangan kesim qismlarining gap tarkibida distant holatda qoʻllanishi nemis tilining alohida xususiyati hisoblanadi.

Soʻz yasash vositalari tizimi yaxshi rivojlangan; soʻz qoʻshish bilan ot (asosan, termin) yasalishi keng qoʻllanadi. Lugʻat tarkibida asl nemischa soʻzlar qatori lotin, fransuz, italyan, ingliz va boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlar ham koʻplab uchraydi. Nemis tilining yozuvi lotin grafikasiga asoslangan.

Nemis tilini koʻplab mamlakatlarda chet tili sifatida oʻrganishadi. Yevropada nemis tili chet tili sifatida ingliz va rus tilidan keyingi oʻrinda keng tarqalgan. 2002-yilda nemis tili ingliz tilidan keyin Internetda eng koʻp foydalaniladigan til sifatida baholangan. Yevropaliklarning 38% Ingliz tilini va 14% Nemis tilini chet tili sifatida oʻrganishadi. Quyidagi mamlakatlarda nemis tilidan chet tili sifatida foydalanishadi:

- Niderlandiyada 11 million atrofida (umumiy aholining 66%)
- Daniyada taxminan 3 million kishi (54 %)
- Sloveniyada 1 Million kishi (45%)
- Xorvatiyada 1,5 Million kishi atrofida(31%)

- Chexiyada 3 million kishi (31%)
- Slovakiyada 1,5 million kishi atrofida (28%)
- Belgiyada 2,5 million atrofida (25%)
- Polshada 7 million atrofida (19%)
- Estoniyada 0,2 millon atrofida (18%)
- Finlandiyada 1 milion atrofida (17%)
- Fransiyada 4 million atrofida (7%)
- Turkiyada 3 milion atrofida (4%)
- Italiyada 2,5 million atrofida (4%)
- Germaniyada 6 million atrofida (7%)



Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida Nemis tilini o'rganish darajasi

Adabiy Nemis tilining Avstriya va Shveysariyadagi variantlari Olmoniyadagi variantidan adabiy tildan turlicha foydalanish va uning lahjalar hamda soʻzlashuv tiliga munosabati nuqtai nazaridan oʻzaro farqlanadi.

Nemis tili german tillarining gʻarbiy guruhiga mansub boʻlib, hozirgi vaqtda quyidagi mamlakatlarda yashovchi xalqlarning ona tilisi sifatida qoʻllaniladi. Jumladan, Germaniya Federativ Respublikasida, Avstriyada, Lyuksemburgda. Germaniya Federativ Respublikasida 80 milliondan ortiqroq, Avstriyada 7 million, Fransiyaning sharqiy viloyatlarida 1 million, Lyuksemburgda esa 400 ming kishi nemis tilida gaplashadi. Shuningdek, nemis tilida gaplashuvchilarni Vengriya, Ruminiya, Yugoslaviya davlatlarida, AQShda, Braziliyada va Argentinada ham uchratish mumkin. Shunday qilib, nemis tili german tillari oʻrtasida gaplashuvchilarning soni jihatidan ingliz tilidan soʻng ikkinchi oʻrinda turadi.

Nemis xalqi va nemis tili oʻrta asrlarning boshlarida, yaʼni V – XI asrlarda franklar, allemanlar va bavarlar deb nomlanuvchi bir-birlariga juda ham yaqin boʻlgan gʻarbiy german qabilalari va ularning tillaridan paydo boʻladi. Nemis xalqining paydo boʻlishida asosiy rolni franklar oʻynashgan.

Germanlar tarixidan maʼlumki, franklar tuzgan davlat bir necha asrlar mobaynida frank davlati territoriyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻlgan, bu davlat territoriyasida ikki davlat tili: fransuz va nemis tili paydo boʻladi va rivojlanadi. Bu tillar uzoq davrlargacha oʻz yozuvlariga ega boʻlmagan kishilar oʻrtasida faqatgina ogʻzaki nutq yordamida aloqa bogʻlash vositasi boʻlib xizmat qiladi. Nemis xalqining tili yuqorida aytganimizdek gʻarbiy german qabilalarining tili sifatida rivojlanadi, taraqqiy qiladi va bu tilda gaplashuvchi german qabilalari franklar davlatining sharqiy viloyatlarida istiqomat qiladi.

Nemis tilidagi dastlabki yozma yodgorliklar VIII asrda buyuk Karl davrida paydo boʻladi. Shu sababli nemis tilida yozuvning boshlanishi ham VIII asrning boshlari bilan bogʻliq deb qaraladi.

Nemis tilining tarixini davrlarga bo'lib o'rganishni birinchi marta Ya. Grimm (1819 -1837) o'zining «Deutsche Grammatik» nomli asarida tavsiya etadi. U nemis tilini uch davrga bo'lib ko'rsatgan:

I davr: althochdeutsch (ya'ni qadimgi yuqori nemis tili davri – VIII-XI asrlar);

II davr: mittelchohdeutsch (o'rta yuqori nemis tili davri – XI-XIV asrlar);

III davr: neuhochdeutsch (yangi yuqori nemis tili davri – XIV dan hozirgi vaqtgacha). Yangi yuqori nemis tili davri o'z navbatida ikkiga bo'linadi: ilk yangi yuqori nemis tili davri (XIV-XVI); yangi yuqori nemis tili davri (XVI asrdan hozirgi kungacha bo'lgan jarayon).

«Yuqori nemis tili» termini ikki xil ma'noda qo'llaniladi:

1) Germaniyaning janubida joylashgan dialektlarini ifodalash uchun;


2) Nemis milliy adabiy tilini ifodalash uchun.

Bunga sabab shundaki, nemis adabiy tili Germaniyaning janubida joylashgan yuqori nemis dialekti asosida rivojlanadi.

Qadimgi yuqori nemis tilida dialektlar.

Qadimgi yuqori nemis tili davri nemis xalqining va bu xalq tilining paydo bo'lish va takomillanish davri bo'lib hisoblanadi. Bu davrda, ya'ni IX asrning birinchi yarmigacha, franklar davlati mavjud bo'ladi. Frank davlati buyuk Karl vafotidan so'ng uning nabiralari o'rtasida taqsimlanadi. Natijada frank davlatining sharqiy qismi, ya'ni bo'lajak Germaniya Lyudovik Nemetskiyga tegadi. Shu tufayli Germaniya 843- yilda tashkil topadi. Bu davrga kelib Germaniya davlati territoriyasida mayda-mayda knyazliklar tashkil topadi. Qadimgi yuqori nemis tili davrida nemis xalqi va nemis tilining nomi ham yo'q edi. Faqat bir-biriga yaqin qarindosh bo'lgan, bavarlar, allemanlar, shvablar kabi german qabilalari va ularning qabila tillari mavjud edi.

Qadimgi yuqori nemis tili davriga kelib ko'p sonli dialektlar umumlashadi: ularda bir-birlariga yaqin bo'lgan belgilar paydo bo'ladi. Bularning hammasi qandaydir yangi tilning namoyon bolishiga olib keladi. Germaniya franklar davlatidan ajralib chiqqandan



Germaniya hudidagi shevalarning xilma-xilligi

so'ng u Frankoniya, Bavariya, Shvabiya, Saksoniya va Tyuringiya kabi gertsogliklardan iborat bo'ladi.

Dastlabki yozma yodgorliklarning paydo bo'lishiga qadar (VIII asr) ushbu gertsogliklar o'rtasida juda yaqin aloqalar mavjud bo'ladi va ularning tillari bilan birgalikda qadimgi yuqori nemis tili tashkil etiladi.

Bizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklarga nazar tashlar ekanmiz, dialektlarning o'zlariga xos xususiyatlarga egaligiga va shu bilan birgalikda ularning bir-birlariga ta'sir qila olishlariga ishonch hosil qilishimiz mumkin. Qadimgi yuqori nemis tilida mavjud bo'lgan dialektlarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish ayni muddaodir.

1. O'rta nemis dialekti

Nemis tili va xalqining paydo bo'lishi

Nemis xalqining va nemis tilining paydo bo'lishida franklarning hissasi katta. Shu sababli bu xalqqa shu qabilaning nomini, ya'ni franklar nomini berilishini kutish kerak edi. Lekin tarixda buni aksi bo'lib chiqdi va ularning tiliga o'z qabila nomini beradi: frencisc < franc - so'zidan kelib chiqqan. Franklar ona tilining yo'q bo'lib ketishidan saqlash maqsadida, ular o'z tilini – diutisk < qadimgi yuqori nemis tilida - diot ya'ni xalq tili deb atay boshladilar. Franklar davlatining davlat tili lotin tili edi; bunga qarama – qarshi ravishda franklar o'z tilini diutisk ya'ni xalq tili bilan yurita boshladilar. Ushbu so'z dastavval 786 – yilda lotin tilida – theodiscus shaklida uchraydi, keyinchalik esa ya'ni XI asrning oxirlaridan boshlab, 1050 yillarga kelib diutisk – shaklida Reyn daryosi bo'yida yashaydigan franklar va boshqa german qabilalariga nisbatan qo'llana boshlaydi. O'sha davrdagi yozma yodgorliklarda – diutschiu lant, diutshiu liute, diutschiu man – kabi so'z birikmalarini uchratish mumkin.

XII asrda yaratilgan «Regensburg shahrining imperatori solnomasi» nomli asarda bu so'z - die Diutiscen shaklida uchraydi. Shunday qilib – diutschen shaklidagi atama nemis xalqining nomiga aylanganligini ko'ramiz. Natijada - Deutsch – so'zi faqatgina nemis xalqini emas, balki uning tilini ham bildirib keladi.

Shu bilan birga bu xalqning shunday atalishiga VIII asr boshlarida «kelt» tilidan kirib kelgan «germanicus» soʻzi ham muhim ahamiyatga ega boʻlgan. Chunki, bu soʻz yordamida german tillari yoki german xalqlari degan tushunchalar yuzaga keladi.

Shu narsa eʼtiborga sazovorki, «germanicus» soʻzi antik dunyo mualliflarining, yaʼni Tsitsiron, Posidoniy, Tsezar asarlarida ham uchrab turgan (miloddan oldingi birinchi asr). Lotin tili oʻsha davrda nafaqat davlat tili boʻlib qolmasdan, balki lotin tilida cherkov qoshidagi maktablarda ham taʼlim-tarbiya ishlari olib borilgan. Nemis tilida, yaʼni diutisc xalq tilida yozuvning paydo boʻlishiga asosiy sabab, oʻzlashtirib olinishi ancha qiyin boʻlgan soʻzlarni bilib olishda tilning keng koʻlamda qoʻllanishidir. Chunki, nemis tili yozuvi uchun lotin alifbosi asos qilib olinadi, shuning uchun ham koʻp hollarda lotin alifboni nemis tiliga moslashtirishga toʻgʻri keladi.

Nemis tilidagi baʼzi bir tovushlar hamma vaqt ham lotin alifbosidagi tovushlar yordamida ifodalanavermaydi. Shuni aytish lozimki, lotin alifbosini nemis yozuviga moslashtirish hamma vaqt ham toʻgʻri kelavermagan, chunki har qaysi cherkov oʻz xohishicha ish tutgan. Bu holat yozuvda har xillikning paydo boʻlishiga olib keladi. Masalan, biz „xalq“ soʻzini quyidagicha variantlarda uchratishimiz mumkin: deot, thiot, doit, thiet, diet. Xuddi shunday holatni suchen feʼlining variantlarida ham kuzatish mumkin: suoh(h)en; suohhan, suahhen, suhhen, sohhen, souhheen, suah(h)en, suahan, suahchan, sueehhen, suahhen, suhhen, siuhhan va boshqalar.

Yozuvning paydo boʻlishiga asos boʻlgan sabablardan yana biri-bu xalqlar oʻrtasidagi savdo aloqalarining rivojlanishidir, chunki bu savdo aloqalari xalqlarning bir- birlarini tillar yordamida topishga ehtiyoj tugʻdiradi. Va nihoyat yozuvning paydo boʻlishining asosiy sabablaridan yana biri yangi kirib kelgan xristian dinini xalq tilida targʻib qilishdir, chunki diniy asoslarni xalq tushunib oʻrganishi kerak edi.

1.3. Nemis va o'zbek tillarining o'zaro yondashish hususiyatlari va munosabatlari haqida

Germaniya-O'zbekiston munosabatlari. Germaniya bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida rasmiy munosabatlar 1992- yildan boshlangan bo'lsa ham, ikki davlat o'rtasidagi aloqalar uzoq davrga borib taqaladi. XX asr boshlarida o'zbek chevarlari orasida nemislarning "Zinger" tikuv mashinasi nihoyatda mashhur bo'lgan. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ikki mamlakat o'rtasida teng huquqli munosabat o'rnatildi. O'zbekistonning G'arbiy Yevropadagi birinchi elchixonasi 1993- yil Bonn shahrida ochilgan. O'sha paytdanoq o'zaro aloqalar, delegatsiyalarning tashriflari yo'lga qo'yildi. Germaniya Federal iqtisodiy hamkorlik vazirining 1992- yil avgustdagi rasmiy tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish uchun asos yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 1993- yilning aprelida Germaniyaga qilgan tashrifi o'zaro savdo-iqtisodiy munosabatlarga muhim omil bahsh etgan burilish voqeyasi b'ldi. Ushbu tashrif yakunida imzolangan " Kapital qo'yilmalarni amalgam oshirishga ko'maklashish va ularni o'zaro himoyalash to'g'risida" shartnoma, " Ilmiy tadqiqot va mutaxassislar jamg'armasini vujudga keltirish" hamda " Madaniy hamkorlik" to'g'risida bitimlar ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini belgilab beradi.

Hamkorlik dasturlarini muvofiqlashtirish va tezroq amalga oshirish maqsadida 1993- yil avgustda idoralararo komissiya hamda 1995-yil may oyida O'zbekiston – Germaniya doimiy ishchi guruhi tuzildi. Mazkur komissiya va guruh muntazam ravishda yig'ilishlar o'tkazib, investitsiyalarni kafolatlash va sug'urtalash, loyihalarni moliyalash, hususiylashtirishga ko'maklashish, qimmatli qog'ozlar bozorini vujudga keltirish kabi muhim masalalarni hal qilib kelayotir. 1993- yil Toshkentda Germaniya texnikaviy hamkorlik jamiyatining vakolatxonasi ochildi. Jamiyat faoliyati tufayli bozor iqtisodiyotiga oid seminar va o'quv kurslari o'tkazish yo'li bilan mutaxassislar tayyorlash, iqtisodiy qonunchilik, hususiylashtirish, kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish, atrof-muhitni

muhofaza qilish, shahar yo'lovchi transportiga doir qonun va nizomlar ishlab chiqish, "Onalik va bolalikni himoya qilish" tadbirlari bo'yicha maslahatlar berish dasturi amalga oshirila boshladi.

1994-yilda Germaniya savdo-sanoat palatalari birlashmasi Toshkentda Germaniya iqtisodiyoti vakili byurosini ochdi. Uning asosiy vazifasi o'zbek va nemis ishbiarmonlarini axborot bilan ta'minlashdan iborat. O'sha yilning iyunida Toshkentda K.Adenauer jamg'armasining vakolatxonasi ochildi. Gannover xalqaro yarmarkasi ishlab turgan davrda (1994-yil aprel) o'tkazilgan "O'zbekiston iqtisodiyoti kunlari" Germaniya Federativ Respublikasi jamoatchiligi va ishbiarmonlarini g'oyat qiziqitirdi.

Germaniya Federativ Respublikasi prezidentining 1995-yilning 11-13-aprelida Toshkentga qilgan tashrifi davomida ikkala mamlakatning ishbiarmonlari ishtirokida qo'shma biznes-seminar o'tkazildi. Keyingi yillarda O'zbekiston banklari, Fanlar akademiyasi va turli vazirliklari hamda muassasalari hodimlari uchun amaliy mashg'ulotlar, konferensiylar va foydali uchrashuvlar bo'lib o'tdi. 1995-yildagi Shtutgart shahridagi Linden-muzeyda "O'zbekiston. Buyuk ipak yo'li merosi" mavzusida ochilgan ko'rgazma O'zbekiston-Germaniya hamkorligini rivojlantirishda sezilarli voqea bo'ldi. 1996-yil 18-19-iyunda "Germaniya-Markaziy Osiyo" jamiyati, "Doyche Bank", Frankfurt-Mayn shahri magistrati va O'zbekiston Respublikasining Germaniya Federativ Respublikasidagi elchixonasi tashabbusi bilan Frankfurt shahrida "Germaniyada O'zbekiston iqtisodiyoti kunlari" xalqaro anjumani o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning Germaniyaga 2001-yil 2-5 aprel kunlari qilgan tashrifi ikki mamlakatning o'zaro munosabatlarida sifat jihatidan yangi davr boshlanganini bildirdi. Tashrif davomida moliya, sayyohlik, fan-texnika, narkotiklar kontrabandasiga qarshi kurash kabi sohalari bo'yicha o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirishni nazarda tutuvchi o'n to'rtta hujjat imzolandi.

"Landtexnik-Tashkent", "Chirkom", "Uz-Vinkler", "Grasso", "TashVirt", "Intermed Ekosan", "Nambum" va boshqa qo'shma korxonalar uskunalari

tayyorlash, korxona mashinalari va yo'l texnikalari, telefon tarmoqlariga xizmat ko'rsatish, novvoychilik uskunalarini olib kelish va ularni montaj qilish, tibbiy dorilarni yetkazib berish, go'sht-yog' mahsulotlari va qog'oz ishlab chiqarish bilan mashg'ul.

O'zbekiston-Germaniya munosabatlarida Toshkent va Berlin shaharlari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Ikki davlat poytaxtlarining hamkorligi faqat iqtisodiy sohani emas, ijtimoiy-madaniy sohalarni ham keng qamrab olgan. Germaniya poytaxti Bonndan Berlinga ko'chirilgach, 2001-yil 3-aprelda Berlinda O'zbekiston elchixonasining yangi binosi ochildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ham qatnashdi.

Ikki tomonlama munosabatlarda madaniyat, san'at, fan, xalq ta'limi, ommaviy axborot vositalari, sog'likni saqlash va sport sohalaridagi hamkorlik ham katta ahamiyatga ega. Germaniyada O'zbekiston madaniyati kunlari doirasida Berlin, Potsdam, Dortmund, Bonn, Shtutgart, Gamburg, Gannover, Visbaden shaharlarida O'zbekistonning musiqa, tasviriy va teatr san'ati keng namoyish etilganligi buning yorqin misolidir. O'z navbatida respublikamizda ham Germaniya madaniyati kunlari muvaffaqiyatli o'tdi. Ikki tomonlama hamkorlikning rivojiga K. Adenauer, F. Ebert jamg'armalari, Gyote nomidagi institute, Germaniya oliy o'quv yurtlari, universitetlari rektorlari konferensiyasi, "Doyche Velle" telekompaniyasi, "Germaniya-O'zbekiston" do'stlik jamiyati, "EPOG" Berlin jamoat-madaniy birlashmasi katta hissa qo'shmoqdalar.

Adenauer jamg'armasi ko'magida Sant-Augustin shahrida "Amir Temur va uning jahon tarixida tutgan o'rni" mavzuyida ilmiy konferensiya, "Orol ekologik fojiasining milliy va xalqaro aspektlari" simpoziumlari o'tkazildi. Jurnalistlar guruhi va nemis ijodiy ziyolilari vakillari tashabbusi bilan Orol haqida hujjatli film olishga kirishildi. Qoraqalpog'iston bolalar kasalxonalariga dori-daronlar va tibbiyot uskunolari uchun mablag' yig'ish tashkil qilindi va bu hududda suv tozalash inshootlarini yaratish uchun mablag' to'plandi.

O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand universitetining Gumboldt nomidagi hamda Bamberg va Gyottingen shaharlaridagi universitetlar bilan

hamkorligi samarali rivojlanayotir. O'zbekiston Respublikasida nemis millatiga mansub 25 mingga yaqin kishi yashaydi.

2004 yil mart oyidan O'zMUda VVU olimlari tomonidan 13 ta blok seminarlar o'tkazildi, unda XFF nemis tili bo'limi hamda Respublikadagi boshqa Oliy o'quv yurtlari talaba va magistrleri ishtirok etdilar. XFF talabalari hamda Vestfal universitetining doktorantlari (Katya Sheller, Katrin Xyoner, Kristina Rchexak, Lili Tonger-Erk) pedagogik amaliyotlarini o'tadilar.

Grant asosida Germaniyaga har yili o'qish uchun eng yaxshi talaba, magistr, aspirantlar, shuningdek o'qituvchilar malakalarini oshirish uchun boradi. Kafedrada 2003 yildan to'rtta xalqaro konferentsiya o'tkazildi:

1. 2002 yil 18-19 - noyabr. Toshkentda "Tilda, adabiyotda va madaniyatda hind - evropa hamda hind - evropa bo'lmagan adabiy aloqalar" mavzusidagi birinchi xalqaro ilmiy konferentsiya o'tkazildi. Konferentsiyada 26 ta o'zbek va nemis olimlari o'zlarining ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar.
2. 2003 yil 1-3 dekabr. Myunsterdagi "Tilda, adabiyotda va madaniyatda hind - evropa hamda hind - evropa bo'lmagan adabiy aloqalar" mavzusidagi ikkinchi xalqaro ilmiy konferentsiya o'tkazildi.
3. 2007 yil 9-10 yanvar. Toshkentdagi "Tilda, adabiyotda va madaniyatda hind - evropa hamda hind - evropa bo'lmagan adabiy aloqalar" mavzusidagi uchinchi xalqaro ilmiy konferentsiya o'tkazildi. Unda ilk bor Germaniya hamda O'zbekiston olimlaridan tashqari Xorijiy Filologiya Fakulteti nemis tili bo'limi talabalari ham ishtirok etishdi. Uchinchi xalqaro konferentsiyada nemis filologiyasi kafedrasining iqtidorli talaba va magistrleri o'zining ilmiy - tadqiqot mavzulari bilan ishtirok etishdi.
4. 2009 yil dekabr oyida Toshkentda "Tilda, adabiyotda va madaniyatda hind - evropa hamda hind - evropa bo'lmagan adabiy aloqalar" mavzusidagi to'rtinchi xalqaro ilmiy konferentsiya o'tkazildi.

Turli davrlarda nemis tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlar yaqinda Toshkent Gyote-Institutida tashkil etilgan **“O'zbek tilidagi olmon o'zlashtirma so'zlari”** nomli ilmiy ma'ruzada keng tahlil qilindi. Unda nemis tili o'qituvchilari hamda bu tilni o'rganayotgan o'quvchi va talabalar ishtirok etishdi. Ma'ruzachi Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti roman-german filologiyasi fakulteti dekani, **filologiya fanlari doktori Bahodir Primov** faol va iste'moldan chiqqan boshlagan o'zlashtirma so'zlarning qo'llanilishi va ma'no qirralarini til rivojlanishiga oid misollar bilan asoslab berdi.

Unga ko'ra, nemis o'zlashtirma so'zlari o'zbek tiliga asosan rus tili orqali kirib kelgan. Hozirgi zamonaviy o'zbek tilida bunday so'zlarning ko'pchiligi faol va ayrimlari kam qo'llaniladi. O'zbek tilida yana shunday faol nemischa o'zlashtirma so'zlar mavjudki, ular bugungi kunda nemis tilining o'zida deyarli iste'moldan chiqqan. Masalan, asli nemis tilidan kirib kelgan *“klaviatura”* so'zi kompyuter va boshqa informatsion texnologiyalar rivojlanishi tufayli hozirda o'zbek tilida keng qo'llaniladi. Biroq bugungi zamonaviy olmonlar klaviaturani ifodalash uchun nemischa *“Klaviatur”* emas, balki *“Tastatur”* so'zidan foydalanishi ajablanarlidir.

II.BOB. O'ZBEK SO'ZLASHUV TILIDAGI NEMISCHA SO'ZLAR TAHLILI

Insonning yillar o'tgani sayin hayotning turli xil sohalarida o'zi uchun yengilliklar yaratishiga urinishi, yangidan yangi ilmiy-texnikaviy ixtirolar qilishi va uni hayotga tadbiq qilishi natijasida o'z tili lug'at boyligida turli xil mislsiz darajadagi yangi so'z va atamalarning vujudga kelishiga turtki bo'ladi. Bu ixtirolar qaysi millat vakillari tomonidan yaratilmasin, undan butun dunyo xalqlari foydalanadi. Yangi texnik ixtorolar nafaqat xalqning hayotiy ehtiyojlarini qondiradi, balki o'zi bilan shu xalq kundalik hayotiga yangi so'zlarni ham yetaklab keladi. Bu esa har qanday tilning lug'at tarkibini boyishiga, uning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'zbek tili ham bundan mustasno emas. Bunday leksik birliklardan o'zbek xalqi o'zining og'zaki va yozma nutqida faol foydalanib kelmoqda (13; 42-43)

Ushbu ishda yangi nashrdagi “ O'zbek tili izohli lug'ati” dagi nemis tilidan o'zlashgan so'zlar va ularning so'zlashuv tilida foydalanishi jihatidan tadqiqotlar o'tkazildi. Nemis tilidan o'zlashgan jami so'zlar hajmi 265 tani, so'zlashuv nutqida qo'llaniluvchi so'zlar esa taxminan 102 tani tashkil qiladi. Bu so'zlarning o'zbek tilidagi ma'nolari, qo'llanilish sohalaridagi izohlar, so'zlarning fonetik, morfologik va semantik tahlillari keltirilgan.

O'zlashma so'zlarning tematik guruhlar. Lug'atlar ustidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'zlashuv nutqida qo'llaniluvchi nemis tilidan o'zlashgan so'zlar anchaginani tashkil qilarkan. Ulardan katta ko'pchiligi kundalik hayotimizda tez-tez uchraydi va bu so'zlarni o'z nutqimizda huddi asl o'zbekcha so'zlarday faol qo'llaymiz. *Klaviatura, ryukzak, plakat, rolik, galstuk, fakultet, kurort*- bugungi kunda bu so'zlarisiz kundalik hayotimizni tasavvur eta olmaymiz. Bu so'zlar hayotimizning bir butuniga aylanishga ulgurgan.

O'zlashmalar ichida shunday so'zlar borki, ular hozirda butunlay iste'moldan chiqib ulgurgan, ularning o'rniga boshqa bir leksik birliklar qo'llaniladi. Masalan, nemis tilidan kirib kelgan *pochtmeyster, polismeyster* so'zlari o'zbek

xalqi tomonidan ilgarilari ko'p ishlatilgan . Endi bu so'zlar o'z o'rnini *pochta boshlig'i, politsiya boshlig'i* kabi leksik birliklarga bo'shatib bergan. Bu so'zlar allaqachon arxaizmga aylanib bo'lgan. (13; 51)

Umuman olganda, nemis tilidan kirib kelgan o'zlashmalarning qo'llanilish sohalari va o'rinlari turlicha xarakterga ega. O'zbek tiliga nemis tilidan o'zlashgan so'zlarni so'zlashuv nutqda qo'llanilish darajasiga qarab quyidagi tematik guruhlariga ajratdik:

1. **Kimyo – texnika, texnologiyaga oid so'zlar:** *shnur, kolba, shprits, drel, shurup, nikel, shlang, bolt, shina, dizel, signal, kran, rentgen, pult, klaviatura, linza, kraxmal* va boshqalar.

2. **Kasb –hunar va ular bilan bog'liq so'zlar:** *master, doktorant, buxgalter, baletmeyster, registratura, tush, tabel, yarmarka* va boshqalar

3. **Madaniy hayot va uning jabhalariga oid so'zlar:** *fakultet, mentalitet, universitet, orden, shayba, kamandirovka, grupp, gastrol, anshlag, arfa, shtanga* va boshqalar.

4. **Kundalik turmush va uning ko'rininshlariga oid so'zlar:** *kvartira, reys, bint, kastyul, ryukzak, matras, papiros, papka, penal, plakat, ryumka, rolik, talk, tarelka* va boshqalar.

5. **Kiyim –kechakka oid so'zlar:** *bantik, fartuk, sharf, shuba, shlyapa, lenta, galstuk, vatin* va boshqalar

6. **Oziq – ovqatlarga oid so'zlar:** *buxanka, buterbrod, mors, shokolad, vafli* va boshqalar.

7. **Shahar qurilish va binokorlikka oid so'zlar:** *faner, shirma, shifer, karniz, kafel, zal, kurort, landshaft, kamin* va boshqalar.

8. **Pochtaga oid so'zlar :** *shablon, shrift, marka, abzats, adresant, adresat, shtamp* va boshqalar.

9. **Siyosiy – harbiy sohalarga oid so'zlar:** *konferens-zal, shpion, raketa, kansler, soldat, kapitalizm, shtraf, bort, shtab* va boshqalar.

10. **Iqtisodiy sohaga oid so'zlar:** *kilo, brak, sentner, bankrot, kapital, statistika, prosent, order, sex, shaxta* va boshqalar.

11. **Mifologiyaga oid so'z:** *Vampir* va boshqalar.

Tematik ro'yxatdan shuni anglash mumkinki, nemis tilidan o'zbek so'zlashuv tiliga fan-texnika, ijtimoiy hayotning turli sohalariga oid xilma-xil leksik birliklar va atamalar kirib kelgan.

Chet tillaridan kirib kelgan so'zlar tarkibida shu xalq tiliga singishar chog'ida turli xil ma'no-mazmun, son va sifat va yana ko'plab jihatlarida turli xil o'zgarishlar, moslashishlar yuz bergan. Ular quyidagi kichik guruhlariga bo'lib o'rganildi:

1. O'zlashmalardagi fonetik o'zgarishlar.
2. O'zlashmalardagi grammatik o'zgarishlar.
3. O'zlashmalardagi semantik o'zgarishlar.

2.1. O'zbek tilidagi nemischa so'zlarning fonetik tahlili

Nemis tilidan o'zlashgan so'zlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ular o'zlashish jarayonida o'zbek tilining imlo va talaffuzi qoidalari ta'sirida ma'lum daraja moslashish jarayonini boshidan kechirgan. Professor O. Jumaniyozov fikricha, ular, avvalo, rus tilining ofografik va orfoepik qonun – qoidalariga moslashib, keyin o'zbek tili ta'sirida muayyan yozilish va aytilish shaklini olgan. Bu jarayon diaxronik va sinxronik nuqtai nazardan olib o'rganilsa, mazkur o'zlashmalar o'zbek tili lug'at tarkibiga kirib kelish jarayonida, ayniqsa, uning dastlabki davrlarida (XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida) so'zlashuv tilidagi shaklida yozuvga qabul qilinganligi ma'lum bo'ladi. Masalan,

o'zbekcha
ishtirop

ruscha
umpaß

nemischa
Strafe

*ishtop**умаб**Stab**yormonka**ярмарка**Jahrmarka*

Masalan: ...*Har doim savdolarimiz Qazonda ... va ham Toshkandda va ham yormonkalarda: Tubanda zikr etilg'on molar sotiladi.* ("Taraqqiy").

Gazeta materialidagi misollardan ravshan ko'rinib turibdiki, bu davrda so'zlar qanday aytilsa va eshitilsa, shunday o'zlashtirilgan. Bu davrda yana bir qiziq holatni kuzatish mumkin. Ayrim o'zlashmalar o'zbek tilida azaldan bor bo'lgan va ma'nosi shu qabul qilinayotgan so'z anglatadigan tushunchaga yaqin so'zlarga qiyoslab, o'xshatib qo'llanilgan. Bu hodisa tilshunoslikda xalq etimologiyasi deb yuritiladi.

Nemis tiliga mansub so'zlarning o'zbek tilida ifodalanishiga kelsak, ularni o'zbek tili imlosi va talaffuziga o'xshashligi va undan farqlariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganilishi mumkin.

O'zlashma so'zlarning imlosi va talaffuzi

Agar bir chet tildan ikkinchi tilga so'z o'zlashsa, qabul qiluvchi til uni, iloji boricha, asl tildagi imlo va talaffuz shaklini saqlab qolgan tarzda o'zlashtirishi kerak. Bu qoida imlosi bir xil bo'lgan tillar uchun yozilishida qiyinchilik tug'dirmaydi, farqlar faqat aytilishida bo'lishi mumkin.

Ammo imlosi har xil shrift asosida ish ko'ruvchi tillarda bu masalalarga birmuncha jiddiyroq qaramoq kerak. Chunki, avvalo, harf, qolaversa, tovushlarning bir – biriga o'xshamasligi so'zlarning transliteratsiya masalasini biroz qiyinlashtirib qo'yadi. Shrifti har xil tillardagi o'zlashma so'zlarni imlo va talaffuzi kuzatiladigan bo'lsa, ularni asosan, uch xil ko'rinishda tabaqalashtirish mumkin (13;55):

- 1) Nemis tilidan o'zlashgan so'zlarni o'zbek tilida transkripsiya qilish orqali ifodalash.
- 2) Nemis tilidan o'zlashgan so'zlarni o'zbek tilida transliteratsiya qilish orqali ifodalash.

- 3) Nemis tilidan o'zlashgan so'zlarni o'zbek tilida o'z shaklini qisman yoki bununlay o'zgartirish orqali ifodalash.

O'zbek tilidagi nemis tilidan qabul qilingan o'zlashmalar tahlilida shuni sedan chiqarmaslik kerakki, ular o'zbek tiliga kirguncha, oldin, rus tilida muayyan imlo va talaffuz shakllarini olishgan va shu asosda o'zbek tiliga o'tib kelishgan.

Nemis tilidagi yozuv harflarini o'zbek tili yozuv harflari bilan qabul qilingan so'zlar (transliteratsiya). Bu guruhga o'zbek tiliga o'tish jarayonida imlosida o'zgarishlarsiz qabul qilingan so'zlar kiradi. O'zbek tiliga bu yo'sinda o'zga tillardan kirib kelgan o'zlashmalar nisbatan ko'p. O'zbek tilidagi nemis tiliga mansub so'zlar orasida bu ko'rinish nisbatan, miqdor jihatidan har xil ko'rinishga ega.

Bu guruh so'zlarning qiyoslanayotgan tillarda faqat yozuv harflarining o'xshashligi asosida ajratilishi (farqlanishi), ammo talaffuzi esa manba va qabul qiluvchi tillarda boshqacha bo'lishi mumkinligi, ularni yana ikki kichik guruhga bo'lib o'rganishni taqozo qiladi:

- a) imlosi va talaffuzi aynan va o'xshash o'zlashmalar;
- b) imlosi o'xshash, ammo talaffuzi boshqacha so'zlar.

Birinchi guruhni quyidagi so'zlar tashkil qiladi:

nemischa	o'zbekcha
Doktorand	<i>doktorant</i>
Anschlag	<i>anshlag</i>
Landschaft	<i>landshaft</i>
Schrift	<i>shrift</i>
Spion	<i>shpion</i>
Talk	<i>talk</i>
Schnur	<i>shnur</i>

O'zlashmalarda yozilish va aytilishi mos bo'lib, ammo urg'u o'rni o'zgarib qolishi mumkin. Bu hodisa ko'p bo'g'inli o'zlashmalarda uchraydi:

nemischa	o'zbekcha
‘Absatz	<i>abzâts</i>
‘Buchhalter	<i>buxgaltèr</i>
Kùrort	<i>kur'ort</i>
Orden	<i>ordèn</i>

O'zbek tiliga nemischadan o'zlashgan so'zlar qanchalik to'g'ri transliteratsiya qilinmasin, unli va undoshlar talaffuzi va yana bir qancha fonetik (artikulyatsiya) hususiyatlariga ko'ra farq qiladilar.

Ikkinchi guruhga imlosi o'zbek tili va nemis tilida o'xshash, ammo talaffuzi har xil tilning o'z aytilish qoidolari bo'yicha o'qiladigan so'zlar kiradi.

nemischa	o'zbekcha
Bõrd	<i>bort</i>

Bu ko'rinish ko'pincha ingliz tilidan o'zlashgan o'zlashmalarda uchraydi.

Aslini olganda, talaffuz ozmi-ko'pmi manba va qabul qiluvchi tillarda farq qilmaydigan so'z juda kam, aslida yo'q desa ham bo'ladi. (13; 58)

Nemis tili nutq tovushlarining o'zbek tili nutq tovushlari belgi va harflari bilan aks ettirilgan so'zlar (transkiripsiya). Bu guruhga yozilishi har xil harflar bilan ifodalangan, ammo o'qilishi (aytilishi) o'xshash so'zlarni kiritga bo'ladi.

nemischa	o'zbekcha
Rucksack	<i>ryukzak</i>
Saal	<i>zal</i>
Ballèttmeister	<i>baletmeyster</i>
Scheibe	<i>shayba</i>

Nemis tili nutq tovushlariga o'zbek tilida mos tovush bo'lmay, uni boshqa yoki o'xshash tovushlar bilan qabul qilingan

o'zlashmalar. Tovushlar o'xshashligi orasidagi farq ingliz va rus tiliga qaraganda nemis tili bilan rus tili o'rtasida ko'proqdir. Bu guruhda so'zlar o'z shaklini qisman yoki butunlay o'zgartirish orqali o'zlashadi. Bu so'zlarning katta ko'pchiligi rus tili vositachiligi orqali o'zbek tiliga o'zlashgani sabab, so'zlar tarkibida rus tiliga mansub qo'shimchalar mavjud.

nemischa	o'zbekcha
Matratze	<i>matras</i>
Kasserolle	<i>kastryul</i>
Binge	<i>bint</i>
Kraftmehl	<i>kraxmal</i>
Teller	<i>tarelka</i>

Umlautli o'zlashma so'zlardagi harflar va tovushlar o'zgarishlari:

nemischa	o'zbekcha
Furnier	<i>faner</i>
Schraube	<i>shurup</i>
Römer	<i>ryumka</i>

Misollardan ko'rinib turibdiki, nemis tilidagi qayd qilingan tovushlarni ifodalashda rus tili ojizlik qilgan. Ammo umumiy an'anaga binoan ular rus tilidagi shaklida o'zbek tiliga o'tishgan. O'zbek tilining tovush sistemasi esa bu tovushlarni manba tillardagi kabi aynan ifodalashga qodir.

Nemis tilidan o'zbek tiliga qabul qilingan so'zlarning imlo va tovush jihatidan o'zbek tilida ifodalanishi, ayniqsa, ular o'rtasidagi farqli holatlar shunday kattaki, ularni yana kichik guruhlarga bo'lib o'rganish taqozo etadi.

O'zlashma so'zlar tarkibidagi fonetik o'zgarishlar.

Yuqorida o'zlashma so'zlarning imlo va talaffuzi haqida, ikki til o'rtasidagi farqlar va monandlik, ularning klassifikatsiyasi borasida fikr yuritdik. Misollar tahlili

shuni ko'rsatadiki, o'zlashma so'zlarning imlosi va talaffuzidagi o'zgarishlar ko'pincha urg'u, talaffuz xarakteri kabi farqli xususiyatlar bilan ifodalangan.

O'zbek tiliga o'zlashish jarayonida nemischa so'zlar tarkibida quyidagi fonetik o'zgarishlari sodir bo'ladi:

I. Nemischadan o'zlashgan so'zlarda tovush tushishi hodisasi. Bu guruhga rus tilida o'zlashish jarayonida ba'zi tovushlarning tushirib qoldirib, keyin shu holatda o'zbek tiliga kirib kelgan o'zlashmalar kiradi. Tovush tushishi hodisasi so'zning qaysi qismida sodir bo'lishiga qarab 3 turga bo'linadi:

1. So'z boshidagi tovushlarning tushishi
2. So'z o'rtasidagi tovushlarning tushishi
3. So'z oxiridagi tovushlarning tushishi

1. So'z boshidagi tovushlarning tushishi:

nemischa	o'zbekcha
Harfe	Arfa

2. So'z o'rtasidagi tovushlarning tushishi:

a) So'z o'rtasida kelgan qo'sh undoshlarning birini tushishi:

nemischa	o'zbekcha
Balletmeister	<i>baletmeyster</i>
Waffel	<i>vafli</i>
Pennal	<i>penal</i>
Adressat	<i>adresat</i>
Butterbrod	<i>buterbrod</i>

b) So'z o'rtasidagi unlilarning tushishi:

nemischa	o'zbekcha
Schaube	<i>shuba</i>
Saal	<i>zal</i>

c) So'z o'rtasida qator kelgan undoshlarning birini tushishi:

nemischa	o'zbekcha
----------	-----------

Furnier	<i>faner</i>
Matratze	<i>matras</i>
Kraftmehl	<i>kraxmal</i>

3. So'z oxiridagi tovushlarning tushishi:

a) So'z oxiridagi unli tovushlarning tushishi:

nemischa	o'zbekcha
Tusche	<i>tush</i>
Matratze	<i>matras</i>
Reise	<i>reys</i>
Schokolade	<i>shokolad</i>
Schlange	<i>shlang</i>

b) So'z oxiridagi undosh tovushlarning tushishi:

nemischa	o'zbekcha
Jahrmarkt	<i>yarmarka</i>
Kolben	<i>kolba</i>
Bankrott	<i>bankrot</i>

c) So'z oxirida yonma – yon kelgan undosh va unli tovushlarning ikkisiyam tushishi:

nemischa	o'zbekcha
Tabelle	<i>tabel</i>
Binge	<i>bint</i>
Gastrolle	<i>gastrol</i>
Kasserolle	<i>kastryul</i>

II. Nemischadan o'zlashgan so'zlarda tovush ortishi hodisasi.

Bu guruh o'zlashmalariga rus tiliga qabul qilinish jarayonida ortiqcha (rod

yasovchi) qo'shimchalarni olgan va shu ko'rinishda o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlar kiradi.

Nemis tilidan o'zbek so'zlashuv nutqiga kirib kelga so'zlarda tovush ortishi hodisasining quyidagi ko'rinishlari sodir bo'lgan :

a) So'z oxirida tovush ortishi:

nemischa	o'zbekcha
Jahrmarkt	<i>yarmarka</i>
Registratur	<i>registratura</i>
Quartier	<i>kvartira</i>
Mark	<i>marka</i>

Bu misollardan shuni bilib olish mumkinki, nemis tilidagi so'z rus tiliga o'zlashar ekan, bunda qabul qiluvchi til ya'ni rus tili yangi so'zlarga o'zining rod yasovchi qo'shimchalarini qo'shibgina bu so'zlarni o'z lug'at tarkibiga kiritgan. Bu holat o'zlashmalar faqat nemis tilidan kirib kelgan so'zlar uchun xarakterlidir.

b) So'z o'rtasida tovush ortishi:

nemischa	o'zbekcha
Schraube	<i>shurup</i>
Schlappe	<i>shlyapa</i>

v) So'z oxirida ikkita unli va undosh tovushlarning ortishi:

nemischa	o'zbekcha
Teller	<i>tarelka</i>
Römer	<i>ryumka</i>
Pappe	<i>papka</i>
Papier	<i>papiros</i>

III. Nemischadan o'zlashgan so'zlarda tovush o'zgarishi hodisasi. Bu hodisa ko'pincha nemis tilidan kirib kelgan o'zlashmalarga xosdir. O'zlashmalar tarkibidagi ba'zi qo'shimchalar qabul qiluvchi tilga turli xil ko'rinishda o'zgarib o'tadi:

1. Soʻz oʻrtasidagi unli tovushlarning oʻzgarishi:

e→i	Arrestant	<i>ariston</i>
	Watte	<i>vatin</i>
u→a, ie→e	Furnier	<i>faner</i>
i→e	Linte	<i>lenta</i>
	Drillbohrer	<i>drel</i>
o→a	Vortuch	<i>fartuk</i>
e→a	Kraftmehl	<i>kraxmal</i>

2. Soʻz oxiridagi unli tovushlarning oʻzgarishi:

e→a	Rakete	<i>raketa</i>
	Schlappe	<i>shlyapa</i>
	Schaube	<i>shuba</i>
e→i	Waffel	<i>vafli</i>

3. Soʻzdagi undosh tovushlarning oʻzgarishi:

Bord	<i>bort</i>	= d→t
Kachel	<i>kafel</i>	= ch→f
Schraube	<i>shurup</i>	= b→p
Halstuch	<i>galstuk</i>	= h→g , ch→k
Vortuch	<i>fartuk</i>	= ch→f
Buchhalter	<i>buxgalter</i>	= h→g
Kraftmehl	<i>kraxmal</i>	= ft→x

2.2. Oʻzbek tilidagi nemischa soʻzlarning grammatik tahlili

Rus tilida o'zlashgan so'zlar morfologik nuqtai nazardan ko'plab kuzatuvlarda tadqiqot obyekti qilib olinadi. Chet tillari va rus tilida bir – biriga o'xshash hamda bir xil vazifani bajaruvchi morfemalar V.A. Bogorodiskiy, V.V. Vinogradov, N.V.Yumshanov tomonidan, chet so'zlarning modifikatsiyasi (shakl o'zgartirishi) va fleksiyasi (turlanganda yoki tuslanganda so'z qo'shimchalarining o'zgarishi) I. Yassenko, G. Sonkina tomonidan o'rganilgan. O'zlashgan so'zlarda so'z yasalishi va ularning qabul qiluvchi tildagi grammatik kategoriyalari haqida ham ko'plab ilmiy fikrlar bildirilgan.

O'zbek tilshunosligida bu masalalar, birinchi navbatda, rus tili va o'zbek tili bilan bog'lanib o'rganildi. A. K. Borovkov, M.P. Po'latov, R. Donyorov, A.N. Tixonov, S. Akobirov, I.U. Asfandiyorov o'zlarining ilmiy ish maqolalarida rus va o'zbek tillarining o'zaro aloqasi asosida yuz bergan o'zgarishlar haqida o'zlarining ilmiy mulohazalarini bildirdilar. Ayniqsa 60- yillardan boshlab bu masala bilan ko'pchilik o'zbek tilshunoslari shug'ullanishdi.

I. U.Asfandiyorovning O'zbekistonda rus tilining tutgan o'rnini tekshirishga bag'ishlangan monografiyasi bu borada o'ziga yarasha katta ahamiyat kasb etadi. Muallifning ta'kidlashicha, har qanday tilda ham o'zlashtirma so'zlar juda oson o'zlashib va moslashib ketadi, chunki ular o'zlashtirayotgan tilning **grammatik sistemasi ixtiyoriga o'tadi, o'z so'zlari huquqini oladi.**

Ma'lumki, o'zlashmalar XX asrgacha o'zbek tilining sistemasi va meyorlari talablariga javob bermas edi. U paytlardagi qabul qilingan so'zlarda nemis tili va o'zbek tillari Grammatik qoidalarining aralashib ketganligi buning yaqqol dalilidir, masalan, gosudariskiy banka, katta ishtirop, ishtops- kapitan va boshqalar.

Nemis tilidan o'zlashgan so'zlar, avvalo, rus tili, keyin esa o'zbek tili grammatik qurilishi qoidalari ta'siri ostida qat'iy shakllantirildi. Bunda o'zlashmalarni quyidagi to'rtta kichik guruhlariga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

1. Nemis tilidan o'zlashgan so'zlar o'zlarining sodda, yasama, qo'shma so'zlar bo'lishiga qaramasdan, morfologik jihatdan o'zgarmasdan manba tillaridagi shaklida o'zbek tiliga o'tishgan:

nemischa	o'zbekcha
Halstuch	<i>galstuk</i>
Landschaft	<i>landshaft</i>
Pennal	<i>penal</i>
Jahrmarkt	<i>yarmarka</i>

2. Nemis tilidan o'zlashgan so'zlar rus tiliga suffikslarini o'zgartirgan holatda qabul qilingan. O'zbek tilida esa ularning rus tilidagi shakli qabul qilingan:

nemischa	o'zbekcha
Vochenze	<i>buxanka</i>
Kasserolle	<i>kastryulka</i>
Teller	<i>tarelka</i>
Schlappe	<i>shlyapa</i>

3. O'zlashmalardagi suffikslar rus tilida tushirib qoldirilgan va shu shaklda o'zbek tiliga o'tgan:

nemischa	o'zbekcha
Matratze	<i>matras</i>
Spritze	<i>shiprits</i>
Strafe	<i>shtraf</i>
Tabelle	<i>tabel</i>

4. O'zlashma so'zlar suffikslari avval rus tilida o'zgartirilgan, o'zbek tiliga esa ikkinchi o'zgarishga duch kelib o'zlashgan:

nemischa	o'zbekcha
harfen	<i>arfa chalmoq</i>
röntgen	<i>rentgen qilmoq</i>

Bu misollardan ko'rinib turibdiki, nemischa so'zlar avval rus tiliga o'zlashib keyin o'zbek tiliga o'tgani sabab, har ikkala tildagi suffiks o'zgarishlari turli xil.

Nemis tilidan o'zlashgan so'zlar tahlilida yana bir e'tiborli hodisaga duch kelindi. Nemis tiliga mansub bo'lgan so'zlar o'zbek tiliga kelib yangidan yangi til birliklari: sodda, yasama, qo'shma so'z va iboralar yasalganliklarini ko'ramiz. Fikrimizni izohlash uchun ba'zi misollar keltiramiz:

Plakat: bu soʻz oʻzbek tiliga rus tili orqali kirib kelgan. Bu soʻz madaniyat, maʼrifat va taʼlim sohalarida keng qoʻllaniladi. Bu soʻzning soʻzlashuv nutqida quyidagi: *plakatlar, reklama plakatlari, plakat chizmoq, koʻrgazmali plakatlar* kabi koʻplab til birliklarini uchratish mumkin. Masalan, *Maʼsulyatsizlik bilan tayyorlangan koʻchalardagi plakatlar, tashkilot va magazin peshlavhalari dilingizni xira qiladi* (gazetadan).

Yarmarka: bu soʻz ham oʻzbek tiliga rus tili orqali oʻzlashgan boʻlib, soʻzlashuv nutqida keng qoʻllanilmoqda. Bu oʻzlashmaning oʻzbek tilida quyidagi koʻrinishlari mavjud: *savdo yarmarkalari, boʻsh ish oʻrni yarmarkalari, oʻquv qurollari yarmarkasi* va boshqa leksik birliklarni kuzatish mumkin.

Tabel: bu soʻz ham oʻzbek tiliga rus tili orqali oʻzlashgan boʻlib, bugungi kunda hayotning har bir sohasida keng qoʻllaniladi. *Baholar tabeli, roʻyhatga olish tabeli, tabel yuritmoq, tabelchi* va boshqa leksik birliklar koʻp qoʻllaniladi. Masalan, *akamning tabelidagi “xulq” deb yozilgan grafada har doim “5” baho boʻladi* (S. Anorboyev, Oqsoy).

Barchaga maʼlumki, oʻzbek tilida rod kategoriyasi va artikel kabi shakllar mavjud emas. Shu boisdan nemis tilidan oʻzbek tiliga oʻzlashgan soʻzlar oʻz – oʻzidan bu hususiyatlarini yoʻqotgan holda qoʻllaniladi:

nemischa	oʻzbekcha
die Binge	<i>bint</i>
der Soldat	<i>soldat</i>
das Butterbrot	<i>buterbrod</i>
das Plakat	<i>plakat</i>

Yangi nashrdagi Oʻzbek tili izohli lugʻatidan aniqlangan oʻzbek soʻzlashuv uslubida qoʻllaniluvchi 102 ta nemischa soʻzlarning deyarli barchasini ot soʻz turkumiga oid leksik birliklar tashkil etadi. Bu soʻzlarni esa quyidagi kichik guruhlariga ajratgan holda organishni maʼqul koʻrdik:

1. Shaxs otlari
2. Narsa-buyum otlari
3. Oʻrin-joy otlari

To'plangan misollarimizda shaxs otlari jami nemischa o'zlashmalarning 13 % ini tashkil etdi.

Shaxs otlari (jami 13 ta)		
der Doktorand	doktorant	Doktorlik dissertatsiyasini yozayotgan fan nomzodi
der Buchhalter	buxgalter	Hisobchi
der Meister	master	Usta
der Spion	shpion	Josus

To'plangan misollarimizda narsa-buyum otlari jami nemischa o'zlashmalarning 63 % ini tashkil etdi.

Narsa-buyum otlari jami (63 ta)		
Das Halstuch	galstuk	bo'yinbog'
Der Rucksack	ryukzak	orqaga taqadigan qo'sh tasmali sumka
Der Römer	ryumka	kichika shisha idish, qadah
Der Teller	tarelka	likopcha, musiqa asbobi, uchuvchi jism
Die Schablone	shablon	qolip, andaza

To'plangan misollarimizda o'rin-joy otlari jami nemischa o'zlashmalarning 14%ini tashkil qiladi.

O'rin-joy otlari jami 14 ta		
Der Kurort	kurort	Davolanish muassasi
Der Jahrmarkt	yarmarka	Savdo bozori, davriy ravishda o'tkaziladigan yig'in, qurultoy
Der Saal	zal	Anjumanlar xonasi, katta xona
Der Schacht	shaxta	Kon

Nemis tiliga mansub o'zlashmalarning o'zbek tiliga son kategoriyasi nuqtai nazardan qabul qilinishiga kelsak, o'zlashmalarning deyarli hammasi o'zlarining birlik shaklida qabul qilingan. Nemis tilida so'zlarning ko'plik shakli maxsus artikl (die), -e, -en qo'shimchalari va umlaut yordamida yasaladi. O'zbek tilida esa -lar qo'shimchasi (lug'aviy shakl) va maxsus ko'plikni bildiruvchi so'zlar (leksik shakl) yordamida ko'plik hosil qilinadi.

birlik	ko'plik
<i>marka</i>	<i>markalar, bir nechta markalar</i>
(die Marke)	(die Marken)
<i>soldat</i>	<i>soldatlar, minglagan soldat</i>
(der Soldat)	(die Soldaten)

O'zlashmalarning morfologik jihatdan tuzilishi masalasiga kelsak, yig'ilgan so'zlashuv uslubiga doir 102 ta o'zlashma ichida *penal, kran, tarelka, shayba* kabi 60 sodda, *abzats, anshlag, landshaft, doktorant, adresant* kabi 8 ta yasama va *fartuk, ryukzak, kraxmal, buterbrod, galstuk* kabi 15 ta leksik birliklar mavjud. Bularning ichida nemis va boshqa millat xalqlarining mashhur kishilari nomlari: *Diesel, Röntgen* va boshqa leksik birliklar borki, ular o'zbek tilining ijtimoiy hayot va fanning ko'pchilik sohalarida, adabiy til va so'zlashuv nutqimizda faol qo'llanib kelmoqda. O'zlashmalar orasidagi sodda va yasama so'zlarning morfologik tuzilishi tahlili oddiy bo'lganligi uchun ularni morfematik analiz qilib o'tirishning hojati yo'q. Ammo qo'shma so'zlarning yasalishidagi rang-baranglik, ularning komponentlari o'rtasidagi bog'liqlik turlicha ko'rinishlarga ega ekanligi va yana shu kabi ayrim xususiyatlar borki ularni kengroq struktural analiz qilishini taqozo etadi. (13;82)

Nemis va o'zbek tilida ham yangi so'zlar quyidagicha hosil qilinadi:

- 1. Qo'shimcha qo'shish orqali (Ableitung, Präfixbildung)**
- 2. So'zlarni so'zlarga qo'shish orqali (Zusammensetzung)**
- 3. So'zlarni qisqartirish orqali (Kürzung)**
- 4. Turkumdan boshqa so'z turkumga o'tish orqali (Übergang in eine neue Wortart)**

5. So'zlarni takrorlash orqali (Lautnachahmung)

Nemis tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlar esa asosan quyidagi usullar orqali yasalgan:

a) sodda-tub so'zlar: *zal* (Saal), *arfa* (Harfe), *tush* (Tusche)

b) qo'shimcha qo'shish orqali:

- Suffikslar orqali

	nemischa	o'zbekcha
-ant	Adressant	<i>adresat</i>
-at	Adressat	<i>adrsat</i>
-schaft	Landschaft	<i>landshaft</i>

- Prefikslar orqali

	nemischa	o'zbekcha
vor-	Vortuch	<i>fartuk</i>
ab-	Absatz	<i>abzats</i>
an-	Anschlag	<i>anshlag</i>

v) So'zlarni so'zlarga qo'shish orqali

Qo'shma so'zlar va ularning yasalishi nemis tilida o'ziga xos hodisadir. Qo'shma so'zlar odatda ikki (va undan ortiq) komponentdan iborat, ya'ni aniqlovchi va aniqlanmish (asosiy) li bo'ladi. Masalan, nemischa *Butterbrot* – *butterbrod* qo'shma so'zini oladigan bo'lsak, bunda *brot* – non so'zi asosiy so'z, aniqlanmishdir. *Butter* – saryog' so'zi esa uni aniqlab, uning saryog' surtilgan non ekanini bildirib keladi. Bu hususiyatlar qo'shma so'z uchun bo'lgan o'zlashma misollarning hammasi uchun taaluqlidir.

O'zbek tilidagi nemischa qo'shma so'zlarning morfologik analizi ularni quyidagi alohida guruhlariga bo'lib o'rganishni taqozo etadi:

Ot+ot: *Konfernz+saal*, *Ballet+meister*, *Hals+tuch*, *Ruck+sack*;

Ot+fe'l: *Drill+bohrer*, *Buch+halter* va boshqalar.

O'zlashmalarning bir-biriga bog'lanib kelishi, struktural-genetik jihatdan bog'lovchisiz *Kraft+mehl* va bog'lovchili *Reich+s+tag* holatlari ham o'zbek tiliga

o'zlashgan. Bu borada shuni qayd qilish kerakki, o'zlashish jarayonida qo'shma so'zlarning bog'lovchi elementlarining tushib qolish holatlari, faqat ayrim so'zlardagina yuz bergan.

O'zlashmalarning o'zbek tilidagi morfologik o'zgarishlariga xulosa qilib aytganda, ular qabul qiluvchi tillarda o'z morfologik xususiyatlarini saqlab qolish bilan bir qatorda, avvalo, rus va keyin o'zbek tilining grammatik qurilish qoidalarining muayyan ta'siri ostida ma'lum darajada qayta shakllangan. So'z va forma yasovchi suffikslarning o'zgarishi, tushib qolishi o'zlashgan tilga xos qo'shimchalr bilan almashtirilishi, rod va son kategoriyasidagi o'zgarishlar, ayrim o'zlashmalarda rod va son bildiruvchi suffikslar yordamida denotatni anglatishning konkretlashuvi kabi xususiyatlar yuqoridagi fikrga dalil bo'la oladi. Qo'shma so'zlardagi bog'lovchi elementlar esa deyarli doim morfologik o'zgarishlardan daxlsiz qolgan.

2.3. O'zbek tilidagi nemischa so'zlarning so'zlashuv tilida uchrashi va ma'nolari

O'zlashgan so'zlarning ma'nosi, ularning o'zbek tili leksikasidagi so'zlar semantikasiga ta'siri va ma'no jihatidan tilga moslashib ketishi masalalariga qiziqish keyingi yillarda ayniqsa kuchaydi (13; 85). „So'zning semantik strukturasi, so'zning leksikografik talqini, monosemiya, polisemiya kabi masalalar bilan chambarchas bog'lanadigan bu muammo faqat semasiologiya uchun emas, balki tilning lug'at tarkibini o'rganadigan boshqa lingvistik yo'nalishlar (leksikologiya, leksikografiya, onomasiologiya, etimologiya kabilar) uchun ham prinsipial ahamiyatga ega“ ekanligi o'zbek tilshunosligida qayta-qayta ta'kidlanmoqda.

Turli tillardagi o'zlashgan so'zlarda semantik o'zgarishlarning sabablari va umumiy tendensiyalari haqida ko'p izlanishlar qilingan. Bu izlanishlar leksik o'zlashmalarning bir tildan boshqa ikkinchi tilga o'tish sabablarini o'rganishda, ulardagi ma'no o'zgarishlarini izohlashda qimmatli manbalar sanaladi.

Ma'lumki, so'z o'zlashishi dastlab so'z va uning ayrim leksik ma'nolari holatida yuz berib, semantik tuzilishi to'la o'zlashmaydi. Chunki tilga kirib kelgan dastlabki davrda o'zlashmaning ma'nosi to'la beriladigan va ifodalanadigan kontekst hali shakllanmaydi. Zero, u xalqlarning o'zaro madaniy munosabatiga bog'liq holda, unga tobe munosabatda qabul qilingan narsa va predmetlarning ifoda etuvchi leksik ma'nosi orqaligina qabul qilingan bo'ladi.

Chet so'z asta-sekin tilda ma'lum leksik birliklar bilan bog'liq holda ishlatila boshlaydi. Nutqda muayyan qo'llanish shakllarini oladi.

Nemis tilidan kirib kelgan o'zlashmalarning o'zbek tilidagi semantik tahlili ularni manba tillar nuqtai nazaridan ikki katta guruhlariga bo'lib o'rganishni taqozo etadi:

1. Monosemantik o'zlashmalar.
2. Polosemantik o'zlashmalar.

MONOSEMANTIK O'ZLASHMALARGA (yunoncha: monos- „bir“+semia- „belgi“, „bir ma'nolilik“) manba tilning o'zida bir ma'noli bo'lgan so'zlarni kiritamiz. O'zlashish jarayoni va undan keyingi ma'nolaridagi ro'y bergan o'zgarishlarni hisobga olib, bu guruh so'zlarni quyidagicha farqlash mumkin:

1. **Ma'nosi o'zbek tiliga to'la ko'chgan o'zlashmalar.** Bu so'zlar odatda, nemis tilida bir ma'noga ega va shu ma'nosi bilan o'zbek tiliga o'zlashgan. Bular asosan terminalogik leksika bo'lib, nutqda narsa va hodisalarni nomlash funksiyalarini bajaradilar. Masalan, *adresat, adresant, ariston, baletmeyster, bankrot, brak, buxgalter, galstuk, buxanka, buterbrod, drel, kastyulka, kapitalizm, kilo, konferens-zal, kran, kurort, mentalitet, mors, nikel, ryukzak, ryumka, talk, penal, plakat, prosent, vafli, vatin, sentner, statistika, shlyapa*, shuba va boshqalar.

Masalan, o'zbek so'zlashuv tiliga o'zlashgan „*ryukzak*“ (Rucksack)- so'zi „orqaga taqib yuriladigan sumka“ ma'nosini, „*plakat*“- so'zi „reklama maqsadida va boshqa maqsadlarda ko'chalarga ilib qo'yiladigan matnli surat“ ma'nosini, „*penal*“ (Pennal) – so'zi esa „ruchka, qatlam solib qo'yiladigan

cho'zinchoq quticha" ma'nosini ifodalaydi. Bu so'zlarning har ikkala tilda ham boshqa ma'nosi yo'q.

Bu guruhga kiruvchi so'zlarning xarakterli tomonidan biri shundaki, ular aniq bir funksional sferaga xosdir va semantik turg'undir.

2. Ma'nosi konkretlashib o'tgan o'zlashmalar. Bu so'zlar nemis tilida umumiy ma'noga ega, o'zlashgan tilda esa ular konkretlashadi, aniq bir predmetni anglatadi. Ya'ni umumiylikdan konkretlashuvga o'tiladi. Masalan, *shuba* so'zi nemis tilida " qadimda erkaklar uchun atalgan yenglari uchun palto ko'rinishidagi kiyim" ni anglatgan. Hozirda esa bu so'z o'zbek tilida „avrasi mo'ynali ayollar ustki qishki kiyimi“ ni anglatadi: *Besonaqay shuba kiyib olib, shol ro'mal o'ragan bir ayol mashinadan tushdi* (N.Aminov, „Suvarak“). Yana bir misol tariqasida *kastryulka* so'zini keltiramiz. Bu so'z nemis tilida „tutqichli, tekis qovurish uchun mo'ljallangan vosita“ni angatadi. O'zbek tilida esa bu so'z „ odatda, silindr, shaklida bo'ladigan, ikki bandi, qulog'i va qopqog'i bor, asosan, ovqat pishiriladigan yoki saqlanadigan metall idish“ni anglatadi: *Shunday deb... kastryulning ikki qulog'idan ko'tarib, yotoqxonaga kirib keta boshladi* (X.To'xtaboyev „Shirin qovunlar mamlakati“).

3. Ma'nosi umumlashgan o'zlashmalar. Bu so'zlar nemis tilida konkretlashgan ma'noga ega. O'zlashgan tillarda esa ularning ma'nolari umumlashadi. Masalan, *buterbrod* so'zi nemis tilida „ustiga faqat saryog' surkalgan non bo'lagi“ni anglatadi. O'zbek tilida esa „ustiga saryog', pishloq, kolbasa, murabbo va boshqa hushta'm narsalar qo'yilgan non bo'lagi“ ma'nosini anglatadi: *Buterbrodni paqqos tushirayapman-u, u kishi bo'lsa yana indamay tayyorlab kelyapdilar* (Gazetadan).

4. Ma'nosi kengaygan (oshgan) o'zlashmalar. Bu guruhga kiruvchi so'zlar o'zbek tilida o'z ma'nolarini kengaytiradilar. Til egalari tasavvurida ichki va tashqi o'xshashlik, funksiyalaridagimonandlik kabi qiyoslanishomillari ostidao'zlashmalar anglatuvchi tushunchalarning hajmi va soni oshadi. U bilan boshqa predmetlar ham nomlana boshlanadi *Shnur* so'zi nemis tilida „eshilgan yoki to'qilgan nozik chilvir, arqon“ ma'nosini

anglatadi. O'zbek tilida esa bu so'z uch ma'noga ega: 1) elektr simi; 2) dinamitning yonuvchi chilviri; 3) chizim, nozik chilvircha..

Analogik misol tariqasida fartuk so'zini olishimiz mumkin. Bu so'z nemischada arxaizmga aylanishga ulgurgan. Keyingi nashrda chiqqan nemischa lug'atlarda ham bu so'z ko'rsatilmagan. Faqat G.Paulning lug'atida (1896) *fartuk* o'zlashmasining izohi va hozirgi kundagi ekvivalenti Schürze so'zi bilan sinonim ekanligi tavsiflangan. Bu o'zlashma esa „odatda kiyimni iflos qilmaslik uchun ustidan kiyiladigan yoki ish paytida belga bog'lab olinadigan, ish kiyimi, peshband“ va „paxta terish uchun maxsus tikilgan, bo'yinga osib, belga bog'lab olinadigan mato parchasi, etak“ ma'nosida va yana „o'quvchi qizlarning rasmiy maktab kiyimi ustidan kiyiladigan oq yoki qora rangdagi yengil kiyim“ ma'nosida kirib kelgan. Masalan: *To'rdagi stol ustida xat yozib o'tirgan oq fartukli xushro'ygina qiz daftardan boshini ko'tarib: -Keling, xizmat?– deb so'radi.* H.G'ulom, Binafsha atri.

POLISEMANTIK O'ZLASHMALAR juda kamdan-kam hollarda o'zlarining ma'nolari bilan o'zbek tiliga va boshqa tillarga kirib kelganlar. Chunki o'zlashmalarning leksik ma'nolari alohida-alohida, bir-biriga bo'ysunmagan muayyan obektiv sabablar bilan o'zlashtirilishi ularning semantik tuzilishining to'laligicha kirib kelishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababdan ko'pincha ko'p ma'noli so'zning bir ma'nosigina kirib keladi. U o'zlashayotgan til uchun yangi narsa va hodisani bildiruvchi, moddiy va ma'naviy hayotni anglatishda kerak bo'lgan tushuncha yoki tasavvurni nomlovchi, tilning kam joyini to'ldiruvchi leksik birlik sifatida tezda qabul qilinadi. Ularning boshqa ma'nolari va ma'no bo'yoqlari o'zlarining tildagi keyingi rivojlanish va o'rnashib olish bosqichlarida yuzaga chiqadi. Shu tariqada, bir ma'noli bo'lib o'zlashgan ko'p ma'noli so'z o'zining boshqa va hatto butunlay yangi ma'nolarini namoyon qilib, uni qabul qilgan tilda asta-sekin to'la voqe'likka aylanadi.

Polisemantik so'zlarning o'zlashgan tillardagi ma'no farqlarining tahlili ularni quyidagicha guruhlariga bo'lib o'rganishni taqozo etadi:

1. Bir ma'nosi o'zlashgan polisemantik o'zlashmalar.

2. Polisemantik so'zlar ikki yoki undan ortiq ma'nolarida qo'llaniladi.
3. Ma'nolari to'la o'tgan polisemantik o'zlashmalar.
4. Ma'nosini kengaytirgan (oshirgan) polisemantik o'zlashmalar.

1. Bir ma'nosi o'zlashgan polisemantik o'zlashmalar – bu guruhdagi o'zlashmalar nemis tilidan kirib kelgan so'zlar ko'p uchraydi. Bu so'zlarga o'zlari nemis tilida ko'p ma'noli bo'lib, o'zbek tiliga faqat bitta ma'nosi qabul qilingan so'zlar kiradi.

Masalan, professor O.Jumaniyozovning „O'zbek tilidagi german tillari o'zlashmalari“ kitobida bu guruhga kiruvchi so'z sifatida nemischa *anshlag* o'zlashmasi keltirilgan. Bunda *anshlag* so'zining 8 ta ma'nosi keltirilgan: 1) urish, zarba, urilish, jaranglash; 2) afisha, e'lon; 3) otishga tayyor holat; 4) savdo ishlarida: biror narsani baholash; 5) suyuqasd, bostirib kirish; 6) texnikada: mashinalarning ish-harakatini chegaralash; 7) to'qish, to'qimaning birinchi qatori; 8) hayvon (it)ning vovullashi. O'zbek tiliga esa „teatr, kino va boshqalarning kassasida biletlar sotilib bo'linganligi haqidagi maxsus e'lon, afisha“ ma'nosida kirib kelgan. O'sha davrlarda bu so'z so'zlashuv tiliga hali to'liq kirib ulgurmagan edi. Ammo bu so'zni bugungi kunda so'zlashuv nutqimizda tez-tez uchratishimiz mumkin. Nemischa *linza* so'zini oladigan bo'lsak, u manba tilda 4 ta ma'noga ega: 1) to'q sariq, qizil, qora rangli tekis va dumaloq urug'li butasimon sabzovot o'simligi, shu o'simlik mevasi, oziq-ovqat mahsuloti sifatida qo'llaniluvchi linza o'simligining urug'i; 2) (optika) nur taramini o'zgartiruvchi qavariq shakldagi jism, kamera obyektivi, (med.) linza shakli va vazifasiga o'xshash, shishadek tiniq ko'zning bir qismi, kontaktlinza; 3) (geol.) linza shaklidagi katta zahiralalar; 4) pulchaqa. O'zbek tiliga esa faqat „shishadan yoki sintetik materiallardan tayyorlangan, qavariq yoki botiq sirt bilan chegaralangan va nur taramini o'zgartiruvchi (sindiruvchi) shaffof jism(suniy ko'z gavxari sifatida, shuningdek, lupa va ko'zoynak tayyorlashda qo'llanadi)“ ma'nosida kirib kelgan: Agar ko'zoynak taqishdan tortinsangiz, sizga istalgan rangdagi kontakt linzalarni tavsiya etishimiz mumkin. *Shurup* so'zining nemis tilida 3 ta ma'nosi bor: 1) boshli va rezbali qilib ishlangan burama mix; 2) samalyot, kema vinti, propelleri;

3) sportda: suvdatana o'qi boylab buralib sakrash. O'zbek tiliga „yog'och yoki metall detallarni mahkamlash uchun ishlatiladigan burma mix“ ma'nosida o'zlashgan. O'zbek so'zlashuv tilida uning bir shurupi yetishmaydi (ya'ni sal telbanamoroq) frazeologik birikmasi ko'p qo'llaniladi. Qizig'i shundaki, nemis tilida ham shu kabi frazeologizm mavjud ekan.

Nemis tilida o'zi ko'p ma'noga ega bo'lib, o'zbek tiliga faqat bitta ma'nosi o'zlashgan so'zlar guruhiga yana quyidagi so'zlar kiradi: *arfa, bolt, dizel, doktorant, fakultet, guruppa, kamin, kafel, kansler, kolba, landshaft, master, orden, papiros, papka, politsiya, registratura, reys, sex, tush, vampir, shaxta, shifer, shlang, shokolad, shprints, shrift* va boshqalar. Bularga bir nechta misollar keltirib o'tamiz: *Rostov shahriga kelib, zavodga kiradi, masterlar qo'lida shogird bo'lib ishlaydi* (Oybek, Tanlangan asarlar). *Bir haftagacha hamma narsadan papiros hidi kelib turdi* (K.Qahhorova, Chorak asr hamnafas). *Ba'zi estamplar ko'pincha u yoki bu siyoh va tush bilan tasvirlanadi* (Gazetadan). *Shlangdan varillab kelib turgan suv hovuzchani bir zumda to'ldirdi* (S.Axmad, Tomosha).

2. Polisemantik so'zlar ikki yoki undan ortiq ma'nolarida qo'llaniladi. Bu, albatta, kontekst yoki o'zlashma so'z bilan birga kelayotgan leksik birliklar bilan bog'liq bo'ladi. Chunki so'zning aniq ma'nosi faqat kontekstdan kelib chiqadi. Masalan, nemischa *marka* so'zini olsak, bu so'z manba tilida: 1) (askarlarda) daraja bildiruvchi nishon, belgi; xat markasi; 2) biror nom, belgi ostida ishlab chiqariladigan narsa turi; 3) o'lchov birligi sifatida) ma'lum bir daraja, o'rin belgisi kabi ma'nolarga ega. O'zbek tiliga esa uning „1) pochta haqi va boshqa xil davlat yig'implari to'langanligini ko'rsatuvchi, turlicha qiymatga ega bo'lgan, odatda biror tasvir, tushirilgan kichikroq to'rtburchak qog'ozcha; 2) mol, tavarga, maxsulotga tayyorlovchisini aniq qilib ko'rsatish maqsadida qo'yilgan fabrika tamg'asi, firma belgisi; 3) tavar, mahsulotning navi, hili“ kabi ma'nolari bilan o'zlashgan: *Xo'sh, kiyov to'ra qanday markali moshina minarkan? Bugungi kunda do'kon rastalarida inson sog'lig'i uchun zararli bo'lgan turli xil markalar ostida ishlab chiqarilgan soxta mahsulotlarni uchratish tez-tez kuzatilmoqda* (Gazetadan).

Bunday o'zlashmalarga yana: *bort, rolik, shayba, shlak, shiprits, shtab* va boshqa shu kabi so'zlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

3. **Ma'nolari to'la o'tgan polisemantik o'zlashmalar.** Bu turdagi o'zlashmalar son jihatidan ancha ozchilikni tashkil qiladi. Ammo asosiysi shundaki, ular o'zlarining to'g'ri va ko'chma ma'nolari bilan o'zlasha olganlar. Bu guruhga misol tariqasida professor O.Jumaniyozov yuqorida aytib o'tilgan kitobida nemischa master so'zini keltirib o'tganlar. Uning quyidagi ma'nolari mavjud: a) rahbar ishchi; b) korxonalarda ishlab chiqarish bo'yicha tashkilotchisi, rahbar; v) kasb-hunar korxonasida shogird yetishtiruvchi; g) biror ishni a'lo darajada bajaruvchi shaxs; d) rahbar hodim. Bu o'zlashmaning yuqorida sanab o'tilgan deyarli barcha ma'nosi o'zbek tilida faol qo'llaniladi va barcha uchun tushunarlidir. Masalan: *Ilgari uchastkada biron-bir payvandlash apparati buzilsa, ishchi masterga aytar, master remontchiga habar berar edi („Guliston“). Direktor telefon qilib ikkinchi sexning masterini chaqirdi („Guldasta“).*

4. **Ma'nosini kengaytirgan (oshirgan) polisemantik o'zlashmalar.** O'zbek tilidagi nemischa so'zlar o'zlashish jarayonida o'z ma'nosidan tashqari, o'zlashgan qatlamda uning yangi ma'nolari ham paydo bo'lishi mumkin. Bu esa so'zlarda ma'no kengayishi deb nomlanadi. Bu guruhga misol tariqasida: *yarmarka, tabel, faner, rentgen, fartuk* va boshqalar. Masalan, nemis tilida *yarmarka* (Jahrmarkt) so'zi faqat „yilda bir yoki ko'p marotaba bo'lib o'tadigan katta savdo bozori“ ma'nosida qo'llaniladi. O'zbek tiliga esa bu so'z yana boshqa ma'nolarni ham anglatadi: „1) ayni bir joyda va bir vaqtda muntazam o'tkaziladigan katta savdo, bozor; 2) Savdo va sanoat tashkilotlari, tijoratchilar, ishlab chiqaruvchilar, matbuotchilar, asosan ko'rgazma qo'yiladigan tavarlarni ulgurji sotish va sotib olish maqsadida davriy ravishda o'tkaziladigan yig'ini, qurultoyi. Masalan: *Yarmarkaning rang-barang so'zanalari.. do'ppilarini juda ko'p xalqaro yarmarkalarda ko'rib, o'zbek xalqining ajoyib san'atiga tahsin aytishadi* (G.Nurillayeva, Go'zallik olamida). Nemischa o'zlashma *faner* (Furnier) so'zi manba tilida

„yog’ochdan bo’lgan yupqa faner, taxta“ ma’nosini anglatadi. O’zbek tiliga o’zlashib esa u „1) yupqa qilib tekislangan yag’och taxtalarni ustma- ust, qatlam- qatlam yelimlab yopishtirib tayyorlangan qurilish materiali; 2) mebellarning sirtini qoplash uchun ishlatiladigan yupqa taxta, plastinka“ kabi ma’nolarni anglatadi. Masalan: *Ahmad shiddat bilan fanerdan yasalgan darchani taqillatdi* (F.Musajonov, Himmat). *Shu mahal yakka tabaqali faner eshik ochilib, ostonada shiftday bo’lib, To’rabek ko’rindi* (M.Mansurov, Yombi).

Tabel so’zi nemis tilida quyidagi ma’nolarni anglatadi: 1) ro’yxat ko’rinishidagi jadval; 2) sportda jamoalarning, sportchilarning natijalari yozilib boriladigan ro’yxat. O’zbek tiliga o’zlashib bu so’z yana yangi ma’nolar anglatadi. „1) Biror narsani hisobga olish varaqasi, jadval; 2) Ishchi va xizmatchilarning ishga kelishi va ketish vaqti qayd qilinadigan maxsus daftar yoki taxta; 3) Maktab o’quvchilarining darsga ulgurishlari (baholari) qayd qilib boriladigan varaq.

XULOSA

Har qanday milliy tilning lug'at tarkibi, uning jami so'z boyligi shu millatning butun tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir. Tarixiy taraqqiyotning uzoq o'tmishga borib taqalishi, esa, har bir tilning lug'at tarkibidagi so'zlarning qachon va qanday paydo bo'lganligi bu so'zlar o'zining ichi imkoniyatlari asosida, o'zining mahsuli sifatida yaratilganmi yoki unga tashqaridan, o'zga tillardan kirib kelganmi, degan masalalarni taqozo qiladi. Yangi kirib kelgan so'zlarning taqdiri, ya'ni u to'la o'zlashadimi yoki bir marta aytilib, qo'llanilib ketaveradimi, mazkur so'zning mavqeyiga, so'z qabul qilgan xalqning hayotiy va kundalik ehtiyojlarini ifodalash kuchiga va, qolaversa, o'zlashtiruvchi tilning ichki imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. Bularning tahlili, avvalo, so'z o'zlashtirish va o'zlashmalar masalasiga to'xtalib o'tishni taqozo qiladi.

Tabiiyki, chet so'z qabul qiluvchi til ta'siri ostida o'zining aytilishi, yozilishi, so'z yasash hususiyatlari va ma'no ottenkalarini, ozmi-ko'pmi, o'zgartiradi. Shu o'zgarishlar, chet so'zni qabul qilayotgan tilning bevosita ta'siri ostida sodir bo'lganligi sababli, uni o'zlashtirayotgan tilga dahldor va uniki(uning o'ziniki) hisoblanadi.

Demak, chet so'z biznikiga aylanmaydi, balki uning o'zgargan imlosi, o'zgargan talaffuzi, yangi so'z yasash imkoniyati va yangi kasb etgan ma'nosigina o'zlashgan bo'ladi. Vaholanki, chet so'zning bu hususiyatlari uni o'zlashtirayotgan tilning (o'zining) mahsulidir. Shuning uchun tilda o'zlashma terminining qo'llanilishi, chet so'zning u kirib kelgan til ta'siri ostida yuzaga kelgan yangi sifat va belgilariga, yangi ma'no va maznunlariga aloqador bo'lishi kerak.

Demak, o'zlashtirish hodisasi asosan, so'z o'zlashtirishdan iborat emas, balki chet so'zlarning imlo va talaffuzi, so'z yasash hususiyatlari va ma'nolarini o'zlashtirishdir.

Bitiruv malakaviy ishimizda hozirgi o'zbek tilidagi "O'zbek tili izohli lug'ati" (yangi nashr) dan topilgan jami 265ta so'z ichidan, o'zbek so'zlashuv tilida va

kundalik turmushda qo'llaniladigan taxminan 102 ta nemischa o'zlashmalar ustida ish olib bordik. Malakaviy ish kirish, ikki bob va xulosadan iborat bo'lib, avvalo, o'zlashmalarning tarixiy ildizlariga, ularning leksik-semantik va morfologik tahliliga, shuningdek, ma'no xususiyatlariga e'tibor qaratdik. Ishimizning birinchi bobida "Tillarning rivojlanishi va bunda o'zaro so'z o'zlashtirishning muhim omil ekanligi" haqida - mulohazalar keltirib o'tilgan. Har bir o'zlashma so'z ustida atroflicha tahlil o'tkazishga harakat qildik. Ularni mavzular bo'yicha guruhlariga ajratib, soni va foizini aniqladik. Ish yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tiliga nemis tilidan o'zlashgan o'zlashmalarning deyarli barchasini ot so'z turkumiga oid so'zlar tashkil etarkan.

Ikkinchi bobda o'zbek so'zlashuv tilidagi nemischa so'zlar tahliliga alohida e'tibor qaratdik. Morfologik tahlil jarayonida o'zbek so'zlashuv tiliga oid jami to'plangan 102 ta nemischa o'zlashmalarning 100 tasi ot so'z turkumiga oid. Shundan shaxs otlari 13 ta (13 %), narsa-buyum otlari 73 ta (73 %), o'rin-joy otlari 14 ta (14%). O'zlashmalarning morfologik tahlili jarayonida eng ko'p o'zlashgan so'z turkumi birinchi o'rinda ot, ikkinchi o'rinda sifat so'z turkumi turishi kuzatildi.

Fonetik tahlil jarayonida nemis tilidan o'zlashgan so'zlar tarkibidagi turli xil fonetik o'zgarishlarni, masalan, so'zlar tarkibidagi tovush tushishi, tovush ortishi va tovush o'zgarishi hodisalari haqidagi tahlillar batafsil berilib o'tilgan.

So'zlarning semantik tahlili jarayonida o'zlashmalarni ma'no jihatidan ikki guruhga: monosemantik va polisemantik so'zlar qatoriga bo'lib tahlil qilindi. O'zlashmalarning semantik o'zgarishlari haqidagi mulohazalarga yakun yasab shuni aytish mumkinki, ularning ma'nolari, avvalo, rus, undan keyin o'zbek tilida ma'lum va muayyan o'zgarishlarni boshidan kechirgan. O'zlashmalarda ma'no torayishi, kengayishi, qisman va to'la o'zgarishi, ma'no bo'yoqlarning yangi jilosi, ma'noning ko'chma xarakter olishi kabi o'zgarishlar yuz bergan. Bular hammasi, o'zbek tilining o'z imkoniyatlarini aktivlashtirishga, leksik jihatdan rivojlanishiga va funksional taraqqiy qilishiga katta hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Havfsizlikka tahdid va barqarorlik shartlari. -Toshkent: O'zbekiston, 1997.-B. 328
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012- yil 10- dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PK- 1875- sonli qarori
3. A b d u l l a y e v F.O'zbek milliy adabiy tili va uni o'rganishga oid masalalar // «Nutq madaniyatiga oid masalalar» to'plami. – Toshkent, 1973.
4. Abduraumov G., Mamajonov S. O'zbek tili va adabiyoti . – Toshkent : “O'zbekiston”, 1995, 38- bet
5. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1997, 19-20 bet
6. A s q a r o v a M. Respublika maktablarida ona tili o'qitish va nutq madaniyati // «Nutq madaniyatiga oid masalalar» to'plami. - Toshkent: Fan, 1973.
7. B y e g m a t o v E. Nutq madaniyati problemlarining paydo bo'lishi va asoslanishi // «Nutq madaniyatiga oid masalalar» to'plami. – Toshkent: Fan, 1973.
8. B y e g m a t o v E. O'zbek nutqi madaniyati masalalari // O'zbek tili va adabiyoti, 1980.
9. B y e g m a t o v E., B o b o y e v a A., A s o m i d d i n o v a M. Adabiy norma va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 1983.
10. B y e r d i a l i y e v A. So'z va atamalar hosil qilishning ba'zi nazariy masalalariga doir // «Davlat tili haqida»gi Qonunni amalga oshirishning dolzarb muammolari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari. – Navoiy, 1993, 23-bet
11. I b r o h i m o v S. O'zbek tilining nutq madaniyatiga oid masalalar //«Nutq madaniyatiga oid masalalar» to'plami. – Toshkent, 1973.

12. Jumaniyozov A.J. “ Leksikologiya “ fanidan o’quv uslubiy majmua. – Urganch, 2008
13. Jumaniyozov O. O’zbek tilidagi german tillari o’zlashmalari. – Toshkent, 1987
14. K a r i m o v S. O’zbek tilining badiiy uslubi. - Samarqand: Zarafshon, 1992.
15. Lafasov U. P., Ismoilov A.Q., Madvaliyev A.P. O’zbek tili. – Toshkent, 2008
16. Leksikologiya va frazeologiya fanidan ma’ruzalar matni. – Nukus, 2012
17. M a m a t o v A.E. Hozirgi zamon o’zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari.- Toshkent, 1991.
18. M a h m u d o v N., N u r m o n o v A. O’zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent, 1995.
19. Mirtojiyev M. O’zbek tilida polisemiya, T.: 1975
20. M u k a r r a m o v M. Hozirgi o’zbek adabiy tilining ilmiy stili. – Toshkent, 1984.
21. M u x t o r o v A., S a n a q u l o v U. O’zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
22. M u h a m y e d o v S. O’zbek tili funksional stillarini belgilash to’g’risida // O’zbek tili va adabiyoti, 1983, №4.
23. N e ‘ m a t o v H., R a s u l o v R. O’zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O’qituvchi, 1995.
24. Qo’chqortoyev I. So’z ma’nosi va uning valentligi. T.: 1977
25. Q u r b o n o v T.I. Hozirgi o’zbek adabiy tilining publisistik uslubi. ND – Toshkent, 1987.
26. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O’qituvchi, 1981
27. T u r s u n o v U., O’ r i n b o y e v B. O’zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent, 1982.

28. T u r s u n o v U., O' r i n b o y e v B., A l i y e v A. O'zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent, 1995. Sh o a b d u r a h m o n o v Sh. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1980.
29. Tuchiychiboyev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – Toshkent: "O'qituvchi", 1996, 174 –bet
30. O'zbek tili grammatikasi. 1 va 2 tomlar. – Toshkent, 1975, 1976.
31. O' r i n b o y e v B. Funktsional uslubiyat va uning mohiyati. – Toshkent: Fan, 1992.
32. O' r i n b o y e v B. O'zbek tilining so'zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. – Toshkent: Fan, 1975.
33. O' r i n b o y e v B., O' r i n b o y e v a D. O'zbek tilining so'zlashuv uslubi. – Toshkent, 1991.

Lug'atlar

34. O'zbek tilining izohli lug'ati (yangi nashr). – "O'zbekiston Milliy ensklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti
35. O'zbek orfografiyasining asosiy qoiadlari. - Toshkent, 1956
36. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. – Toshkent, 1995
37. O'zbek tilining imlo lug'ati. – Toshkent, 1998
38. Duden – Bedeutungswörterbuch
39. O'zbek tili leksikologiyasi, T.: 1981, 4 - 10 – bet
40. Sh o a b d u r a h m o n o v Sh. O'zbek adabiy tilining leksik normalari // «Nutq madaniyatiga oid masalalar» to'plami - Toshkent: Fan, 1973.
41. Sh o m a q s u d o v A. O'zbek tili stilistikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1983.
42. Moskalskaja O.I. Deutsche Sprachgeschichte. – Moskva, 2003
43. Гухман М.М., Семенюк Н.Н. История немецкого литературного языка IX – XV вв. – М.:, 1983